


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

# **TRAKTOR VA AVTOMOBILLAR NAZARIYASI**

**fanidan amaliy mashgulotlarni o'tkazish uchun**

**USLUBIY KO'RSATMA**



**TOSHKENT-2022**

UO‘T 629.114.2(042.4)

Xajiyev M.X., Primkulov B.Sh. “Traktor va avtomobil nazariyasi” fanidan amaliy mashgulotlarni o’tkazish uchun uslubiy ko’rsatma.- Toshkent: ToshDTU, 2022. 76 b.

Uslubiy ko’rsatma “Traktor va avtomobillar nazariyasi” fani 60712400 - “Avtomobilsozlik va traktorsozlik” bakalavriat yo‘nalishi uchun universitet o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori tasdiqlagan ishchi dasturi asosida tuzilgan.

Unda “Traktor va avtomobillar nazariyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun amaliy ishlar mavzulari nomi, mazmuni (sxemalar, formulalar va boshqa materiallar yordamida), ishlarni bajarish tartibi va amaliy ishlarni bajarish uchun namunalar, hisobot shakli, nazorat savollari va tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Mazkur metodik ko’rsatmani o‘quv amaliyotida qo‘llash ma’ruza darslarida olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

*Islom Karimov nomidagi ToshDTU ilmiy-metodik kengash qarori  
asosida nashr etilgan (29.06.2022 y.10-sonli bayonnomasi).*

Taqrizchilar:

Umirov N.T. t.f.n., dots - TIQXMMI

Irgashev A.I. t.f.d., prof. - ToshDTU

## KIRISH

“Traktorlar va avtomobillar nazariyasi” fani bo‘yicha tayyorlangan mazkur o‘quv qo‘rsatma kursning asosiy bo‘limlarini o‘z ichiga qamrab olgan hamda uni o‘rganish va o‘zlashtirishning muhim turlaridan biri bo‘lib, 5310500 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha “Traktorlar va avtomobillar nazariyasi” fan dasturi talablari asosida tuzilgan.. Unda universitetning o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan ish dasturiga muvofiq umumiy talablar, amaliy ishlar ketma-ketligi va namunalari keltirilgan.

Ushbu metodik ko‘rsatmada fan ish dasturida ko‘zda tutilgan 9 ta amaliy ishlardan iborat:

1. Traktor (avtomobil) muftasini hisoblash.
2. Traktor va avtobil transmissiyasining uzatishlar soni nisbatlarining tuzilishini (strukturasini) aniqlash va tahlil qilish.
3. G‘ildirakli traktor (avtomobil) ning bo‘ylama turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish.
4. Zanjirli traktorning bo‘ylama turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish.
5. To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish.
6. Uch g‘ildirakli traktor chopiq traktorining ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish.
7. Zanjirli yuritgich bosim diagrammasini qurish va tahlil qilish.
8. Zanjirli traktorining burlish tavsifini qurish va tahlil qilish
9. Traktorning potensial tortish tavsifini qurish va tahlil qilish.

Amaliy ishlarni bajarishda barcha hisob-kitoblar SI birliklarining xalqaro tizimiga muvofiq amalga oshirilishi kerak, unda asosiy o‘lchov birliklari: uzunlik - metr (m); massasi - kilogramm (kg); vaqt - minut (m), va fazo, vaqt va mexanik miqdorlarning olingan birliklari uchun: tezlik - metr/sekund (m /s); burchak tezligi - radian (rad/s); aylanish tezligi – ayl/minut (ayl/min); tezlanish - metr/sekund<sup>2</sup> (m/s<sup>2</sup>); burchak tezlanish (rad/s<sup>2</sup>).

Formulalar, koeffitsiyentlar, me’yoriy qiymatlar va boshqalar, tushuntirish xati oxirida keltirilgan adabiyotlar ro‘yxatiga mos keltirilgan holda yozilishi kerak.

Amaliy ishning grafik qismi kompas dasturi yordamida kompyuterda bajariladi. Matnda sxema, chizma va diagrammalar qalinligi kamida 0,5 mm bo‘lgan uzuqsiz chiziqlarda chiziladi.

# **1-AMALIY MASHG‘ULOT**

## **TRAKTOR (AVTOMOBIL) ILASHISH**

### **MUFTASINI HISOBLASH**

**Ish maqsadi.** Kompyuterda traktor (avtomobil) ilashish muftasini hisoblash va tahlil qilish ko‘nikmalarini egallash.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi. Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

#### **Ish mazmuni**

Amaliy ishni bajarish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Disklarga ta’sir etuvchi kuchlarning solishtirma bosimini aniqlash.
2. Ilashish muftasining shataksirashdagi solishtirma ishini aniqlash.
3. Mufta detallarining bir marta ulanganidagi issiqlik ajralishini aniqlash.
4. Hisoblanayotgan muftaning eskizini chizib, uning asosiy rostlash nuqtalarini ko‘rsatish.
5. Hisobot tayyorlash.

#### **Ishni bajarish uslubiyoti**

##### **1. Disklarning ishqalanish yuzasiga ta’sir etuvchi kuchlarning solishtirma bosimini hisoblash**

Disklarga ta’sir etuvchi solishtirma bosim quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$R_0 = \frac{Q}{F_i} . \quad (1.1.)$$

Bu yerda:  $P_0$ - disklarning ishqalanish yuzasiga ta’sir etuvchi solishtirma bosim, (mPa)

$Q$ - disklarni siqvchi (siqvchi prujinalarni kuch yig‘indisi) kuch, (N)  
 $F_i$ - ishqalanish yuzasi,  $m^2$ .

Amaldagi quruq muhitda ishlaydigan muftalar (ishqalanish qoplamlari asbest asosida tayyorlanganda) ishonchli ishlashlari uchun solishtirma bosim 0,3 mPa dan katta bo‘lmasligi kerak, ya’ni  $P_0 \leq 0,3$  mPa (1.2-jadval). Bosim bu miqdordan oshsa muftaning friksion qoplamlarini shikastlanishiga va tez yejilishiga olib kelishi mumkin.

$$F_i = 2\pi R_{o'r} b.$$

b- ishqalanish yuzasining kengligi, (m).

$$b = R_1 - R_2, \quad R_{o'r} = \frac{R_1 + R_2}{2}.$$

Bu yerda:  $R_{o'r}$  – ishqalanish yuzasining o‘rtacha radiusi, (m);

$R_1, R_2$  - ishqalanish yuzasining tashqi va ichki radiuslari, (m) (1.1-jadval).

Ilashish muftasining maksimal ishqalanish momenti ( $M_{i,max}$ ) dvigatelning nominal momenti ( $M_n$ ) va ilashish muftasining zapas koeffitsiyenti ( $\beta$ ) ga bog‘liq ravishda quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$M_{i,max} = M_n \beta, \quad (Nm) \quad (1.2)$$

$$M_n = 9550 \frac{N_n}{n_n}; \quad (Nm) \quad (1.3)$$

Bu formula dvigatel momentining zohira koeffitsiyenti 10...15% bo‘lsa ishlatiladi. Agarda dvigatel burovchi momentining zohira koeffitsiyenti 30...45% bo‘lsa, unda  $M_{i,max} = M_n \beta k$  ko‘rinishda bo‘lib, korrektor zonasidagi yuqori yuklanishni inobatga olish kerak. Bunda ilashish muftasidan kattaroq burovchi moment o‘tadi.

Bu yerda:  $M_n$  – dvigatelning nominal momenti, (Nm).

$\beta$  - ilashish muftasining zohira koeffitsiyenti,

$N_n$  – dvigatelning nominal quvvati, (kVt),

$n_n$  – dvigatelning nominal aylanishlar soni, ayl/min;

$k$  – dvigatelning zohira momenti koeffitsiyenti,  $k=1,3\dots1,45$ .

Ikkinchi tomonidan ishqalanish momenti muftaning konstruktiv ko‘rsatkichlariga bog‘liq, yani:

$$M_{i,max} = Qf R_{o'ri} i_i. \quad (1.4)$$

Bu yerda:  $f$ - ishqalanuvchi yuzalarning ishqalanish koeffitsiyenti;

$R_{o'}$  – ishqalanuvchi yuzalarning o‘rtacha radiusi, m;

$Qf$ - disklar orasidagi ishqalanish kuchi, N;

$i_i$  - ishqalanish yuzalarining juft soni.

Ilashish muftasining nominal momentdagi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uchun ikki usulda aniqlanadigan  $M_{i,max}$  larni bir biriga tenglaymiz, unda  $M_n\beta = Qf R_{o'ii}$  bo‘ladi.

Bundan disklarning siquvchi kuchi (Q) ni aniqlaymiz:

$$Q = \frac{M_n\beta}{fR_{o'i} i_i}, (N) \quad (1.5)$$

Bu yerda:  $i_i$ -ishqalanuvchi yuzalarning juft soni.

$$i_i = m + n - 1$$

$m, n$  – ilashish muftasining yetakchi va yetaklanuvchi disklar soni. Bir diskli ilashish muftasi uchun  $i_i = 2$  ga teng.

Ilashish muftasining zohira koeffitsiyenti ikki qarama-qarshi ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda qabul qilinadi. Birinchisi-dvigateldan transmissiyaga ishonchli burovchi momentni o‘tkazish (buning uchun  $\beta$  katta bo‘lishi talab qilinadi) va ikkinchisidan traktorning ish rejimi tez o‘zgarilishi natijasida hosil bo‘ladigan ortiqcha yuklanishlardan transmissiyaning himoya qilish (buning uchun  $\beta$  kichik bo‘lishi kerak).

Aytib o‘tish lozimki, koeffitsiyent  $\beta$  ning qiymati muftani boshqarish uchun traktorchi tomonidan pedalga ta’sir etuvchi kuch miqdoriga ham ta’sir qiladi.

Ilashish muftasini hisoblashda uning zohira koeffitsiyentini tanlash uchun hozirgi vaqtida analitik formula mavjud emas. Bu koeffitsiyent mashinaning ishslash sharoitiga bog‘lik holda qoniqarli ishlab turgan muftalar konstruksiyalari misolida qabul qilinadi:

$\beta=1,5\dots2,5$  – avtomobil va transport traktorlarining doimiy ilashgan muftalari uchun;

$\beta=2,5\dots3,5$  – avtomobil va qishloq xo‘jalik traktorlarining doimiy ilashmagan muftalari uchun;

$\beta=3,5 \dots 4,5$  – doimiy ilashmagan va kompensatsiya prujinalari bo‘lman muftalar uchun.

Ishqalanish koeffitsiyenti  $f$  ishqalanuvchi materiallar turiga qarab o‘zgaradi (1.1-jadval).

1.2-jadval

Ishqalanuvchi materiallarining ko‘rsatkichlari

| T/r | Ishqalanuchi materiali | Ishqalanish koeffitsiyenti |               | Ruxsat etilgan bosim, mPa |               |
|-----|------------------------|----------------------------|---------------|---------------------------|---------------|
|     |                        | Quruq muhitda              | Moyda ishlash | Quruq muhitda             | Moyda ishlash |
| 1   | Raybest                | 0,3...0,4                  | -             | 0,15...0,25               | -             |
| 2   | Asbokauchuk            | 0,4...0,5                  | 0,1...0,12    | 0,05...0,2                | 0,3           |
| 3   | Asbobakelit            | 0,35...0,45                | 0,1...0,12    | 0,1...0,3                 | 0,5           |
| 4   | Metallokeramika        | 0,4...0,5                  | 0,1...0,12    | 0,4...0,6                 | 3,0           |

## 2. Ilashish muftasining shataksirashidagi solishtirma ishini aniqlash

Shataksirashdagi solishtirma ish quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$q_{sh} = \frac{L_{sh}}{F_i l_i}; \quad (1.6)$$

Bu yerda:  $L_{sh}$  – ilashish muftasidagi ishqalanish yuzalari orasidagi shataksirash ishi, ( $Dj$ );  $F_i$  – ishqalanish yuzasi,  $m^2$ .

$$L_{sh} = \frac{M_{i,max} \omega_n^2}{2M_{i,max} \left(1 - \frac{1}{\beta}\right) \left(\frac{1}{J_d} + \frac{1}{J_p}\right)},$$

bundan,

$$L_{sh} = \frac{\omega_n^2}{2\left(1 - \frac{1}{\beta}\right)\left(\frac{1}{J_d} + \frac{1}{J_p}\right)}, \quad Dj. \quad (1.7)$$

## 2.1. Dvigatel va traktor agregati aylanuvchi qismlarining inersiya momentini aniqlash

Dvigatelning aylanuvchi qismlarining inersiya momentini aniqlash uchun vaqt birligidagi kinetik energiya tenglamasidan foydalanib,  $J_d$  ning qiymatini topamiz:

$$\frac{Ye}{t} = \frac{J_d \omega_n^2}{2t} = \mu 75N_n.$$

Bu yerda:  $\mu$  –dvigatel quvvatining kinetik energiyaga aylanishidagi to‘liqsizlik koeffitsienti,  $\mu=0,7\dots1,0$ ;

$t$ -vaqt, sek.

$N_n$ -dvigatelning nominal quvvati, ot kuchida.

Yuqoridagi tenglamadan:

$$J_d = \frac{150N_n \mu g t}{\omega_n^2}, \text{ kg m}^2. \quad (1.8)$$

$t=1$ sek. ga teng qilganimizda esa:

$$J_d = \frac{150N_n \mu g}{\omega_n^2}, \text{ kg m}^2.$$

Transmissiyaning birlamchi valiga keltirilgan traktor aggregatining inersiya momenti ( $\text{kg m}^2$ ) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$J_{agr} = J_p = \sum \frac{m r_k^2}{i_{yu.u}^2}, \quad (1.9)$$

Bu yerda,  $\Sigma m$ - aggregatning umumiy massasi, (kg);

$r_k$ –yetakchi g‘ildiraklarning yumalash radiusi, m.;

$i_{yu.u}$ - traktor transmissiyasining yuqori uzatishdagi uzatmalar soni.

$$\Sigma m = m_{sxm} + m_{tr} = 2m_{tr}.$$

$m_{tr}$ -traktorning massasi, (kg).

$m_{sxm}$ -traktor bilan agregatlangan qishloq xo‘jalik va meliorativ mashinalarining massasi, (kg).

$$J_p = \frac{2m r_k^2}{i_{yu.u}^2} . \quad (1.10)$$

### 3. Ilashish muftasi detallarini bir ulanishidagi issiqligining oshishini aniqlash

Ilashish muftasini bir marta qo‘shganda uning detalining qizish temperaturasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$t = \frac{\gamma L_{sh}}{4,18 \cdot 10^3 S m_{disk}} . \quad (1.14)$$

Bu yerda,  $\gamma$  - ilashish muftasining siqish diskiga tomonidan qabul qilinadigan issiqlik miqdori, ( $\gamma=0,5$ -doimiy qo‘shilgan bir diskli muftalar uchun;  $\gamma=0,25$ -doimiy qo‘shilgan ikki diskli muftalar uchun;  $\gamma=1,0$  - doimiy qo‘shilmagan muftalar uchun).

$L_{sh}$ -shataksirash ishi, (Dj); ( $9,81 \text{ Dj} = 1\text{kG m}$ ).

$4,18 \cdot 10^3$  - issiqlikning mexanik ekvivalenti, (Dj/kkal).

$S$ -berilgan detallarni  $1^0$  isitish uchun zarur bo‘lgan issiqlik miqdori (issiqlik sig‘imi), (po‘lat va cho‘yan uchun  $s=0,0117$  kkal/kg.grad.).

$m_{disk}$ -harorati hisoblanayotgan detalning og‘irligi, (kg).

Haroratning oshishi:

$$t \leq 10....15^0 \text{C}.$$

4.Hisoblanayotgan muftaning eskizini chizib, uning asosiy rostlash nuqtalarini: pedalning salt va ishchi yurish yo’lini, otvodka (podshipnik) bilan qisish diskasi richaglari va diskalar orasidagi ishchi tirqishlar o’lchamini, etakchi diskaga o’chamlarini ko‘rsatish talab qilinadi (talaba tomonidan mustaqqil ish sifatida bajariladi).

### Hisobot tayyorlash

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

1.2-jadvalni to‘ldirish: disklarga ta’sir etuvchi kuchlarning solishtirma bosimini, ilashish muftasining shataksirashdagi solishtirma ishini va mufta detallarining bir marta ulanganidagi issiqlik ajralishini aniqlash.

### 1.2-jadval

#### Traktor (avtomobil) ilashish muftasining ish qobiliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (hisoblash natijalari)

|  |   |   |   |
|--|---|---|---|
| Traktor (avtomobil) nomi va rusumi                 | Disklarga ta’sir etuvchi kuchlarning solishtirma bosim $p \geq 0,3, [\text{мPa}]$ | Shataksirashdagi solishtirma ishi<br>$q \geq 500...600, \left[ \frac{\text{кДж}}{\text{м}^2} \right]$ | Mufta detallarining bir marta ulanganda issiqlik ajralishi<br>$t \leq 10....15^{\circ}\text{C}$ |
| Hisoblash natijasida aniqlangan parametr qiyatlari |   |   |   |
|  |   |   |   |

3. Traktor (avtomobil) ilashish muftasi asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha bajarilgan hisoblash ishlari natijalarini tahlil qilish: disklarga ta’sir etuvchi kuchlarning solishtirma bosimini aniqlash; ilashish muftasining shataksirashdagi solishtirma ishini aniqlash; mufta detallarining bir marta ulanganidagi issiqlik ajralishini aniqlash.

4. Hisoblash natijalari asosida yaratilgan mufta o‘rnatilgan traktor (avtomobil)ning yo‘llar va dala sharoitida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bering.

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrlarga ega bo‘lgan variantlarda bajaring (1.3-jadval).

6. Xulosa:

(bajarilgan ish bo‘yicha talaba tomonidan to‘ldiriladi)

|  |                     |  |
|--|---------------------|--|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |                     | «Traktor va avtomobillar nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o‘quv yili |
| Bajardi:   | Guruh:              | Traktor (avtomobil) ilashish muftasini hisoblash                         |
| Qabul qildi:   | 1-amaliy mashg‘ulot |  |

Illova  
1.3-jadval

**Sanoat asosida seriyali ishlab chiqarilayotgan traktor va  
avtomobillar asosiy parametrlari<sup>1</sup>**

| T/r | Traktor va<br>avtomobil<br>rusumi | Disklar<br>diametri,<br>mm |                | Zohira<br>koff.,<br>$\beta$ | Issiqlik-<br>ni yutuvchi<br>mufta<br>yetakla-<br>nuvchi<br>diski<br>massasi-<br>$m_d$ , kg | Yetak-<br>chi<br>disk-<br>lar<br>soni -<br>m | Yetak-<br>lanuv-<br>chi<br>disklar<br>soni,<br>- n | Traktor va<br>avto-<br>mobilga<br>berila-<br>digan<br>og‘irlilik<br>kuchi –<br>G, H |
|-----|-----------------------------------|----------------------------|----------------|-----------------------------|--|--|--|---|
|     |                                   | D <sub>1</sub>             | D <sub>2</sub> |                             |  |  |  |   |
| 1.  | T-16MA                            | 254                        | 150            | 2,8                         | 5,0  | 2  | 1  | 14000 <sup>2</sup>  |
| 2.  | TTZ-60.10                         | 350                        | 240            | 2,9                         | 8,0  | 2  | 1  | 28900 <sup>2</sup>  |
| 3.  | TTZ-60.11                         | 350                        | 240            | 2,9                         | 8,0  | 2  | 1  | 28900 <sup>2</sup>  |
| 4.  | TTZ-80.10                         | 325                        | 200            | 2,55                        | 7,5  | 2  | 1  | 30000 <sup>2</sup>  |
| 5.  | TTZ-80.11                         | 325                        | 200            | 2,55                        | 7,5  | 2  | 1  | 30000 <sup>2</sup>  |
| 6.  | MTZ-80X                           | 325                        | 200            | 2,55                        | 7,5  | 2  | 1  | 36400 <sup>2</sup>  |
| 7.  | MTZ-80                            | 325                        | 200            | 2,55                        | 7,5  | 2  | 1  | 30000 <sup>2</sup>  |
| 8.  | MTZ-82                            | 325                        | 200            | 2,55                        | 7,5  | 2  | 1  | 31500 <sup>2</sup>  |
| 9.  | T-150K                            | 352                        | 210            | 3,6                         | 8,0  | 3  | 2  | 79000 <sup>2</sup>  |
| 10. | VT-100                            | 340                        | 210            | 3,1                         | 8,0  | 3  | 2  | 63000 <sup>2</sup>  |
| 11. | VT-150D                           | 340                        | 210            | 3,1                         | 8,0  | 3  | 2  | 68000 <sup>2</sup>  |
| 12. | GAZ-53A                           | 300                        | 164            | 2,15                        | 2,0  | 2  | 1  | 31500 <sup>2</sup><br>40000 <sup>3</sup>  |
| 13. | ZIL-130                           | 342                        | 186            | 2,10                        | 8,0  | 2  | 1  | 45750 <sup>2</sup><br>40000 <sup>3</sup>  |

*Izoh:*

1-talaba o’z xoxishi boyicha mazkur jadvalda ko’rsatilgan tractor va avtomobillardan boshqa variantni ham tanlashiga ruhsat etiladi.

2-traktor yoki avtomobil og‘irlilik kuchi.

3-yuk og‘irligi.

### **Nazorat savollari**

1. Quyidagilar qanday aniqlanadi:

-disklarga ta’sir etuvchi kuchlarning solishtirma bosimi;

-ilashish muftasining shataksirashdagi solishtirma ishi.

2. Traktor va avtomobil ilashish muftasi detallarining bir marta ulanganidagi issiqlik ajralishini hisoblash qaysi formula yordamida aniqlanadi? Bu hisob nima maqsadda bajariladi?

3. Disklarga ta'sir etuvchi kuchlarning solishtirma bosimini, ilashish muftasining shataksirashdagi solishtirma ishi, mufta detallarining bir marta ulanganidagi issiqlik ajralishi nimani bildiradi?

## **2-AMALIY MASHG‘ULOT**

### **TRAKTOR (ATOMOBIL)LAR TRANSMISSIYASI UZATMALAR SONINI STRUKTURASINI TUZILISHINI TAHLIL QILISH**

**Ish maqsadi.** Kompyuterda traktor (avtomobil) transmissiyasi uzatmalar sonining strukturasi tuzilishini asosiy ish tezliklarida geometrik progressiya usulida aniqlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini egallah.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

#### **Mashg‘ulot mazmuni**

Amaliy ishlarni bajarish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Traktor (avtomobil) tezliklari va uning transmissiyasi uzatmalar soni strukturasi tanlash.
2. Dvigatelning yuklanish koeffitsiyentini aniqlash.
3. Nurli diagramma, uzatmalardagi urinma kuchlar va ularning nisbatini aniqlash.
4. Geometrik progressiya mahrajini aniqlash.
5. Xisobot tayyorlash.

#### **Ishni bajarish uslubiyoti**

##### **1.Traktor (avtomobil) tezliklari va uning transmissiyasi uzatmalar soni strukturasi tanlash**

Loyihalanayotgan traktorlar va avtomobillar, qishloq xo‘jalik va meliorativ mashinalar keng qamrovli ishlarni samarali, yuqori unumda

bajarish uchun ular mashina va ishchi quollar kompleksi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Traktorning maksimal va minimal tortish kuchlari shu mashinalar kompleksi uchun aniqlanadi.

Mashina-traktor agregatining yurish tezligi asosiy uzatmalarda agrotexnik talablarga qarab belgilanadi. Harakat tezligi qishloq xo‘jalik va meliorativ ishlarini bajarishiga qarab uch diapazonga bo‘linadi:

1. Texnologik sekinlashgan tezliklar- 3 km/soat gacha.
2. Asosiy ishchi tezliklari (zanjirli traktorlar uchun - 9.0 km/soat gacha, g‘ildirakli traktorlar uchun esa-15.0 km/soat gacha).
3. Transport tezliklari (zanjirli traktorlar uchun-15,0 km/soat gacha, g‘ildirakli traktorlar uchun esa- 40.0 km/soat gacha).

Traktorlar nazariyasida transmissiyalarning uzatmalar soni strukturasini geometrik progressiya qatori asosida tanlash maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda transmissiyaning qo‘shni uzatmalarining bir biriga nisbati geometrik progressiya qatorining asosi (q) ga teng bo‘lishi kerak, ya’ni:

$$\frac{i_2}{i_1} = \frac{i_3}{i_2} = \frac{i_4}{i_3} = \frac{i_5}{i_4} = \frac{i_6}{i_5} = \dots = q , \quad (2.1)$$

Uzatmalar soni geometrik qator bilan tuzilganda barcha uzatmalarda dvigatelning yuklanish koeffitsiyenti  $\chi=\text{const}$  bo‘lishi va tortish kuchining har xil uzatmalar oraligidagi ayirmasi teng emasligi qayd etiladi, ya’ni

$$R_1 - R_2 > R_2 - R_3 > \dots > R_n - R_{n+1},$$

Traktor transmissiyasining uzatmalar sonini arifmetik progressiya bo‘yicha olinganda qo‘shni uzatmalar orasidagi urinma kuchlarning farqi bir biriga teng bo‘ladi.

$$R_{u1} - R_{u2} = R_{u2} - R_{u3} = R_{u3} - R_{u4} \dots = R_{un} - R_{u(n+1)}.$$


Arifmetik progressiya bo‘yicha transmissiyaning uzatmalar soni quyidagi ko‘rinishga ega:

$$i_1 - i_2 = i_2 - i_3 = i_3 - i_4 = \dots = i_n - i_{n+1} = q^1.$$

( $q^1$ -arifmetik progressiyaning ayirmasi doimiyligi).

Arifmetik progressiya bilan transmissiyaning uzatmalar soni tanlansa pastgi uzatishlardan yuqori uzatishlarga o‘tishi bilan dvigatelning yuklanish koeffitsiyentining qiymati kamayib boradi. Bu yuqori uzatmalarda traktor agregati ish unumining kamayishi va yonilg‘i sarfining oshishiga olib keladi.

Shu sababli hozirgi zamonaviy traktorlar trasmissiylarining uzatmalar soni geometrik progressiya ko‘rinishida bo‘lishi qabul qilingan.



2.1-rasm. Nurli diagramma

## 2. Dvigatelning yuklanish koeffitsiyentini aniqlash

Dvigatelning yuklanish koeffitsiyenti (yuklanish diapazoni) hamma uzatishlarda teng bo‘lishi uchun uzatmalar soni geometrik progressiya asosida tuzilishi lozim. Traktor aggregatining ish unumini oshirish uchun geometrik progressiyaning maxraji katta bo‘lishi talab qilinadi va bunda dvigatelning yuklanish koeffitsiyenti ham yuqori bo‘ladi. Bunda traktoring ish unumini oshishiga va yonilg‘i tejamkorligiga erishiladi. Buning uchun asosiy uzatishlar diapazonida uzatmalar sonini mumkin qadar ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, traktor trasmissiyasida asosiy uzatishlarda uzatmalar soning qancha ko‘p bo‘lsa, uning dinamik va iqtisodiy tejamkorlik ko‘rsatkichlari shuncha yuqori bo‘ladi, ammo uzatmalar qutisining konstruksiyasi murakkablashadi. Pog‘onasiz uzatmalarning afzalligi ham shunda, chunki ularda ma’lum diapazon ichida hohlagan ko‘p miqdorda uzatmalar soni hosil qilish mumkin. Pog‘onasiz

uzatmalarda traktorning potensial (eng yuqori) tortish tavsifini olish mumkin.

Bu degani pog'onasiz avtomatik uzatmalarda traktorning qarshilik kuchining o'zgarishidan qat'i nazar dvigatelni nominal rejimda yuklanilishini ta'minlanish imkoniga sababli traktorni maksimal ish unumida va yonilg'i tejamkorligida foydalanishga erishiladi.

Dvigatelning yuklanish koeffitsiyenti:

$$\chi = \frac{M_{min}}{M_n}. \quad (2.2)$$

Dvigatelning yuklanish koeffitsiyentini grafik usulda masshtabda chizilgan  $R_u=f(M_d)$  2.1 - rasmdan aniqlashimiz mumkin. Bu grafikdan yetakchi g'ildiraklardagi urinma kuchga nisbatan (dvigatelning yuqori ko'rsatkichlarda ishlashini ta'minlash uchun) bir uzatishdan ikkinchisiga o'tishni asoslash mumkin. Buni ta'minlash uchun dvigatelning minimal va nominal yuklanishlari oralig'ida yuklanishida bo'lishini talab qiladi.

Grafikdagi urinma kuchlar grafigini nominal momentdan yuqoriga davom etishi dvigatelning ortiqcha yuklanishlarda ishlashini bildiradi. Bu oraliq dvigatelning burovchi momentining zo'hira koeffitsiyentiga bog'liq va uning miqdori puflashsiz dvigatellarda 8...18% ga, zamonaviy puflashlilarda esa 30...45% ga teng.

### **3. Nurli diagrammani qurish, uzatmalardagi urinma kuchlar va ularning nisbatini aniqlash**

Nurli grafik dvigatelning nominal rejimda har xil asosiy uzatmalar uchun quyidagi formula yordamida quriladi:

$$R_u = \frac{\eta_m M_{d.n} i_i}{r_k}, \quad (2.3)$$

Har xil uzatmalarda transmissiyaning foydali ish koeffitsiyenti va yetakchi g'ildiraklarning radiusini ( $\eta_m, r_k = const$ ) doimiy S deb qabul qilsak, yani  $\frac{\eta_m}{r_k} = c = const$  unda,

$$R_u = M_{d.n} i_i S.$$

2.1-rasmdan foydalanib dvigatelning nominal hamda grafik bo‘yicha aniqlangan minimal yuklanishidagi uzatmalar bo‘yicha quyidagi bog‘liqliklarni yozamiz:

$$M_n = \frac{R_{u.\max}}{S i_1} = \frac{R_{u2}}{S i_2} = \frac{R_{u3}}{S i_3} = \frac{R_{u4}}{S i_4}, \quad (2.4)$$

$$M_{\min} = \frac{R_{u2}}{S i_1} = \frac{R_{u3}}{S i_2} = \frac{R_{u4}}{S i_3} = \frac{R_{u.\min}}{S i_4}. \quad (2.5)$$

Bu tenglamalardagi  $R_{u.\max}$  va  $R_{u.\min}$  larning miqdorini masshtab bo‘yicha grafikdan aniqlaymiz. Bundan tashqari har bir uzatishdagi nominal nuqtalarda urinma kuchning miqdorini, boshqa uzatishdagi urinma kuch bilan tengligidan foydalanamiz, ya’ni  $R_{u2} = M_{\min} i_1 C = M_{d.n} i_2 C$ . Bu tenglamadan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi uzatmaning nominal urunma kuchi  $R_{u2}$  birinchi uzatmada dvigatelning minimal momentidagi urunma kuch bilan teng. Bundan foydalanib, quyidagi tenglamalarni yozamiz.

$$R_{u2} = \frac{R_{u.\max} C i_2}{C i_1} = \frac{R_{u.\min} C i_1}{C i_4}, \quad \text{bundan}$$

$$\frac{R_{u.\max} i_2}{i_1} = \frac{R_{u.\min} i_1}{i_4}. \quad (2.6)$$

$$R_{u3} = \frac{R_{u.\max} C i_3}{C i_1} = \frac{R_{u.\min} C i_2}{C i_4} \quad \text{bundan} \quad \frac{R_{u.\max} i_3}{i_1} = \frac{R_{u.\min} i_2}{i_4}, \quad (2.7)$$

$$R_4 = \frac{R_{u.\max} C i_4}{C i_1} = \frac{R_{u.\min} C i_3}{C i_4} \quad \text{bundan} \quad \frac{R_{u.\max} i_4}{i_1} = \frac{R_{u.\min} i_3}{i_4}. \quad (2.8)$$

Bu tenglamalarni hadma had (pastgi qatordagi hadlarini yuqori qatordagi hadlarga) bo‘lib chiqsak, unda:

$$\frac{i_4}{i_3} = \frac{i_3}{i_2} = \frac{i_2}{i_1} = q. \quad (2.9)$$

#### 4. Geometrik progressiya mahrajini aniqlash

Bu bog'liqlik traktor transmissiyasining uzatmalar sonini geometrik progressiya asosida tanlanganligini bildiradi va uning maxrajini miqdori q ga teng. Geometrik qator maxraji orqaliq transmissiyaning xar bir ishchi diapazonida uzatmalar sonining bir biriga bog'liqligini aniqlaymiz:

$i_2 = q i_1; i_3 = q i_2; i_4 = q i_3$  bundan,  $i_4 = i_1 q^3, i_n = i_1 q^{n-1}$  umumlashgan ko'rinishi, q ning qiymatini (2.5) formulaga quyib:

$$R_{u.\max} q = \frac{R_{u.\min} i_1}{i_1 q^3},$$

$$q^4 = \frac{R_{u.\min}}{R_{u.\max}} \text{ yoki } q = \sqrt[4]{\frac{R_{u.\min}}{R_{u.\max}}}. \quad (2.10)$$

Dvigatelning yuklanish koeffitsiyentini geometrik qator maxraji bilan bog'liqligini quyidagi tenglamalardan aniqlash mumkin:

$$\chi = \frac{M_{\min}}{M_{\max}} = \frac{R_{u.\min} C i_1}{R_{u.\max} C i_4} = \frac{R_{u.\min} i_1}{R_{u.\max} i_1 q^4}.$$

Bu yerdagi:

$$\frac{R_{u.\min}}{R_{u.\max}} = q^4, \text{ demak } \chi = q.$$

Demak traktor transmissiyasi geometrik qator bilan tanlansa, dvigatelning yuklanish koeffitsiyenti bilan geometrik qatorning maxraji teng bo'lar ekan.

Aytib o'tish lozimki, barcha traktorlarning asosiy uzatishlarida nazariy uzatmalar soni geometrik progressiya bo'yicha aniqlanadi. Ammo traktor transmissiyasining konstruksiyasida o'qlar orasidagi masofa va shesternyalarning modullarini tanlashda geometrik progressiya qatoridan kam bo'lsa ham chetga chiqilishi mumkin. Traktorlarning uzatmalar soni geometrik qator asosida tanlansa, dvigatel nominal rejimga yaqin yuklanishda ishlashi sababli MTAning ish unumi oshadi hamda yonilg'i tejamkorligiga erishiladi.

Topshiriqda berilgan traktor transmissiyasining uzatmalar soni strukturasini tahlil qilish uchun asosiy uzatishlardagi uzatmalar sonini transmissiyaning kinematik sxemasidan aniqlab yozib olinadi.

Traktorning dvigateli quvvati, aylanishlar chastotasi, yetakchi g'ildirakning radiusidan foydalanib hisoblash natijasida nurli diagramma

quriladi. Diagrammadan bir uzatishdan boshqasiga o‘tish diapazonlarini aniqlab, shu asosda dvigatelning minimal yuklanish momenti aniqlanadi.

Diagrammadan foydalanib traktor transmissiyasining uzatmalar soni strukturasini, ya’ni geometrik qator maxraji miqdorini aniqlash.

## Hisobot tayyorlash

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

2.1-jadvalni to‘ldirish: geometrik progressiya maxraji -  $q$  va yuklanish koeffitsiyenti  $\chi$ .

2.1-jadval

Traktor (avtomobil) transmissiyasi asosiy ko‘rsatkichlari: geometrik progressiya maxraji -  $q$  va yuklanish koeffitsiyenti  $\chi$

| Traktor<br>(avtomobil)<br>rusumi va<br>nomi | Hisobiy ishlar natijasida<br>aniqlangan parametrlar |   | Traktor (avtomobil)<br>transmissiyasi uzatmalarini<br>nisbatlarining geometrik<br>progressiya qonuniyatlariga<br>muvofigligi to‘g‘risida xulosalar |
|---|---|---|--|
|   | Geometrik<br>progressiya<br>maxraji,<br>$q$         | Yuklanish<br>koeffitsi-<br>yenti,<br>$\chi$ |  |
|   |   |   |  |

3. Geometrik progressiya maxraji  $q$  va traktor (avtomobil) yuklanish koeffitsiyenti  $\chi$  hisoblash natijalarini tahlil qilish.

4. Hisoblash natijalari asosida yaratilgan traktor (avtomobil)ning yo‘llar va dala sharoitida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bering.

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrlarga ega bo‘lgan variantlarda bajaring (1.3 jadval).

6. Xulosa:

(bajarilgan ish bo‘yicha talaba tomonidan to‘ldiriladi)

|  |        |   |
|--|--------|---|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |        | «Traktor va avtomobillar<br>nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o’quv yili |
| Bajardi:   | Guruh: | Traktor (avtomobil)lar<br>transmissiyasi uzatmalar                          |

|              |                     |                                      |
|--------------|---------------------|--------------------------------------|
| Qabul qildi: | 2-amaliy mashg‘ulot | sonining strukturasini tahlil qilish |
|--------------|---------------------|--------------------------------------|

1-ilova

2.2-jadval

Sanoat asosida seriyali ishlab chiqarilayotgan traktor va avtomobillarning  
2-amaliy ishga kiritilgan ayrim ko‘rsatkichlari

| T/r | Traktor va avtomobil rusumi | Ishchi uzatmalarda qatnashadigan silindrsimon shesternyalar juftlari soni, a | Dvigatel quvvati, kVt | Traktor (avtomobil) dvigateli tirsakli vali aylanishlar soni, n, ayl/min |
|-----|-----------------------------|--|-----------------------|--|
| 1   | T-16MA                      | 3  | 14,72                 | 1600   |
| 2   | TTZ-60.10                   | 5  | 46,4                  | 1800   |
| 3   | TTZ-60.11                   | 5  | 46,4                  | 1800   |
| 4   | TTZ-80.10                   | 5  | 58,88                 | 2200   |
| 5   | TTZ-80.11                   | 5  | 58,88                 | 2200   |
| 6   | MTZ-80X                     | 7  | 58,88                 | 2200   |
| 7   | MTZ-80                      | 5  | 58,88                 | 2200   |
| 8   | MTZ-82                      | 7  | 58,88                 | 2200   |
| 9   | T-150K                      | 4  | 121,44                | 2100   |
| 10  | VT-100                      | 5  | 73,53                 | 1750   |
| 11  | VT-150D                     | 5  | 110,30                | 1850   |
| 12  | GAZ-53A                     | 2  | 84,64                 | 3200   |
| 13  | ZIL-130                     | 3  | 110,4                 | 3200   |

### Nazorat savollari

1. Traktor agregatlarining harakat tezligi qanday talablarga muvofiq tanlanadi?
2. Traktorlar va avtomobillarning uzatish nisbatlarini aniqlash usullari mavjudmi? Ular bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Dvigatel yuklanish omilini qaysi ko‘rsatkich belgilab beradi?
4. Geometrik progressiyaning maxraji q nimani tavsiflaydi?

### **3-AMALIY MASHG‘ULOT**

### **G‘ILDIRAKLI TRAKTOR (AVTOMOBIL) BO‘YLAMA**

### **TURG‘UNLIGINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH**

**Ish maqsadi.** Kompyuterda g‘ildirakli traktor (avtomobil) bo‘ylama turg‘unligini aniqlash, tahlil qilish uslubi bilan tanishish va bo‘ylama turg‘unlik tavsifini qurish.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

#### **Mashg‘ulot mazmuni**

Amaliy ishlarni bajarish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Traktor (avtomobil) ning bo‘ylama turg‘unligi mezoni.
2. Traktor (avtomobil) ning yuqoriga va pastga qarab turgan holatidagi statik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.
3. Traktor (avtomobil) yuqoriga qarab agregat bilan harakatlangandagi bo‘ylama dinamik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.
4. Traktor (avtomobil) notejis yo‘lda yuqoriga qarab agregat bilan harakatlangandagi bo‘ylama dinamik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.
5. Traktor (avtomobil) ning sirpanmaslik sharti.
6. Hisobot tayyorlash.

#### **Ishni bajarish uslubiyoti**

##### **1.Traktor (avtomobil) ning bo‘ylama turg‘unligi mezoni**

G‘ildirakli traktor va avtomobillarning ag‘anamaslik sharti qiyalikdan tepaga chiqishda  $U_{ol} \geq 0$ , pastga tushishda esa  $U_{or} \geq 0$  lar bilan ifodalanadi.

Traktor (avtomobil) qiyalikdan yuqoriga yoki pastlikka harakatlanganda unga ta’sir etuvchi g‘ildiraklarning yumalash qarshiligi, inersiya va ilgakdagi kuchlari ta’sirida ag‘darilish mumkin. Statik turg‘unlikda, g‘ildiraklarning sirpanmaslik sharti bajarilgan holda, maksimal limit turg‘unlik burchagi traktorning faqat geometrik o‘lchovlariga bog‘liq. Sirpanmaslik sharti bajarilmasa limit burchakka yetmasdan traktor (avtomobil) g‘ildiraklari sirpanib maksimal ag‘darilmaslik burchagi hosil bo‘lmaydi.

Traktor (avtomobil) ning bo‘ylama turg‘unligida, dala yo‘l qiyaligi oshishi bilan g‘ildiraklarning normal yuklanishi bir o‘qdan ikkinchisiga qayta taqsimlanadi, ya’ni traktor qiyalikdan yuqoriga yurganda oldingi g‘ildiraklarining yuklanishi kamayib orqa g‘ildiraklariniki oshadi va pastga harakatlanganda yuklanish aksincha qayta taqsimlanadi.

## **2. Traktor (avtomobil) ning yuqoriga va pastga qarab turgan holatidagi statik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash**

Tormozlangan traktor va avtomobil eng katta burchakda ag‘darilmasdan turishiga maksimal chegaraviy (limit) statik burchak deyiladi.

Tormozlar yordamida to‘xtab turgan traktorning yuqoriga va pastga yo‘nalgandagi statik holatidagi turg‘unligini tahlil qilish uchun 3.3-rasm da ta’sir etuvchi kuchlar keltirilgan.

Traktor (avtomobil) ning statik turg‘unligining maksimal limit burchagini aniqlash uchun uning ag‘darilish nuqtasi ( $0_1$ )ga (3.3-rasm ) nisbatan barcha ta’sir etuvchi kuchlarning moment tenglamasini tuzamiz, y’ani  $\sum M_{01} = 0$ :

$$aG_t \cos\alpha - hG_t \sin\alpha - U_{ol}L = 0, \quad (3.1)$$

Bu yerda, a-traktorning og‘irlik markazini gorizontal koordinatasi, m.; h- tractor (avtomobil) ning og‘irlik markazini vertikal koordinatasi, m.;  $G_t$ - tractor (avtomobil) ning og‘irligi, N.

L- tractor (avtomobil) ning bo‘ylama bazasi, m.

$U_{or}$  va  $U_{ol}$  - orqadagi hamda oldingi g‘ildiraklarga ta’sir etuvchi harakat tekisligiga perpendikulyar bo‘lgan reaksiya kuchlari, N.

$\alpha$ - tractor (avtomobil) ning qiyalikda og'ish burchagi, gradus.

Yuqoridagi tenglamaning birinchi ( $a G_t \cos\alpha$ ) hadi tractor (avtomobil)ning ag'darilish chizig'iga nisbatan ag'darilishga qarshilik ko'rsatuvchi moment, ikkinchi hadi ( $h G_t \sin\alpha$ ) esa traktorni ag'anatadigan moment hosil qiladi. Bu momentlarning farqiga nisbatan uchinchi ( $U_{ol} L$ ) had orqali traktoring turg'unligini baholash mumkin. Uchinchi hadning miqdori qancha ko'p bo'lsa turg'unlik zapasi shuncha katta bo'ladi, kamaysa turg'unlik zapasi kamayadi va nolga teng bo'lsa traktoring turg'unlik burchagi maksimal limit burchakka teng bo'ladi.


Demak traktor (avtomobil) ning maksimal limit burchagida  $U_{ol} = 0$  ga tenglashganda  $\alpha = \alpha_{lim}$  ga teng bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda (3.1) tenglamada  $U_{ol}$  ni nolga tenglaymiz, unda quyidagi tenglama hosil bo'ladi:

$$aG_t \cos\alpha_{lim} - hG_t \sin\alpha_{lim} - U_{ol}L = 0, \quad \text{yoki} \\ aG_t \cos\alpha_{lim} = hG_t \sin\alpha_{lim}. \quad (3.2)$$

Oxirgi tenglamadan ko'rniib turibdiki maksimal limit burchak  $\alpha = \alpha_{lim}$  bo'lganda, traktoring turg'unligini stabillovchi moment bilan ag'daruvchi momentlar bir biriga tenglashadi.

Tenglama (3.2) ning hadlarini bo'lib chiqsak traktoring maksimal limit burchagini aniqlash formulasini kelib chiqadi:

$$\operatorname{tg}\alpha_{lim} = \frac{a}{h}. \quad (3.3)$$



3.1-rasm. G'ildirakli traktor (avtomobil) ning statik turg'unligiga oid sxemalar

Yuqoriga qarab turgan traktor (avtomobil) ning turg'unligini oshirish og'irlik markazini gorizontal koordinatasi a ni ko'paytirib, vertikal koordinatasi h ni kamaytirish evaziga erishiladi.

Traktor (avtomobil) ni pastga qarab tormozlanib turgandagi statik turg'unligini aniqlashda uning ag'darilish nuqtasi  $O_2$  ga nisbatan momentlar tenglamasini tuzamiz  $\sum M_{02} = 0$ :

$$(L - a)G_t \cos\alpha - hG_t \sin\alpha - U_{or}L = 0, \quad (3.4)$$

Yuqorida keltirilgan usul bilan pastga qarab turgan traktor (avtomobil) ning ag'anamaslik sharti ( $U_{or} \geq 0$ ) dan  $U_{or} = 0$  ga tenglaymiz va quyidagi maksimal limit turg'unlik burchagini aniqlash formulasini keltirib chiqaramiz:

$$\operatorname{tg}\alpha_{lim} = \left(\frac{L-a}{h}\right). \quad (3.5)$$

Pastga qarab turgan traktor (avtomobil) ning turg'unligini oshirish uchun traktor (avtomobil) ning bo'ylama bazasi ( $L$ ) ni oshirish, gorizontal koordinata ( $a$ ) ni kamaytirish (bunda traktorning tepaga chiqish burchagi kamayadi) hamda vertikal koordinatasi ( $h$ ) ni kamaytirish kerak. Ahamiyat berilsa, traktor (avtomobil) ning vertikal koordinatasi uning qiyalikda yuqoriga va pastga qarab turganlarida bir xilda ta'sir etadi.

Tenglamalar (3.4) va (3.5) ning tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, yuqoriga va pastga qarab turgan traktor (avtomobil) ning statik turg'unligiga faqat uning og'irlik markazining koordinatalari va bo'ylama bazasi ta'sir qilar ekan.

### **3.G'ildirakli traktor (avtomobil) ning dinamik bo'ylama turg'unligi**

Traktor (avtomobil) ning turg'unligi (statik turg'unlikga o'xshab) oldingi g'ildiraklardagi harakat tekisligiga perpendikulyar bo'lган reaksiya kuchiga bog'liq bo'lганligi sababli ( $U_{ol} \geq 0$ ), uni ( $O_1$ ) nuqtaga nisbatan olingan moment tenglamasi yordamida aniqlaymiz  $\sum M_{01} = 0$ :

$$U_{ol}(L + a_{ol}) - aG_t \cos\alpha + R_u h_{il} + (G_t \sin\alpha + R_j)h + U_1 a_{or} + M_{j1} + M_{j2} = 0 \quad (3.6)$$


Bu yerda:  $R_u$ - urinma kuch, N;  $h_{il}$ - ilgakning harakat tekisligidan balandligi, m;  $R_j$  – traktor (avtomobil) ning notekis chiziqli harakatdan hosil bo‘ladigan inersiya kuchining yigindisi, N;  $a_{ol}$ ,  $a_{or}$  - yetakchi va yetaklanuvchi g‘ildiraklarning ishqalanish-yumalash masofasi, m;  $M_{j1}$  va  $M_{j2}$ - yetakchi va yetaklanuvchi g‘ildiraklarning inersiya momenti, Nm.

Quyidagi belgilanishni kiritamiz:

$$U_{or}a_k = M_{ms}; \quad U_{ol}a_p = M_{mp}.$$

$M_{ms}$  va  $M_{mp}$  - yetakchi va yetaklanuvchi g‘ildiraklarning yumalashiga qarshilik momentlari, Nm.

Traktor (avtomobil) ning bo‘ylama turg‘unligi reaksiya kuchi ( $U_{ol}$ ) ga bog‘liq bo‘lganligi sababli yuqoridagi tenglamadan uni aniqlaymiz:



3.2-rasm. G‘ildirakli tractor (avtomobil) ning umumiyy dinamikasi sxemasi

$$U_{ol} = \frac{aG_t \cos \alpha - R_u h_{il} - (G_t \sin \alpha + P_j)h - M_{sk} - M_{sp} - M_{jor} - M_{jol}}{L} \geq 0 \quad (3.7)$$

Bu tenglama va tengsizlikdan ko‘rinib turibdiki traktor turg‘unligini muvozanatlashuvchi had ( $aG_t \cos \alpha$ ) hisoblanadi. Bunda asosiy muvozanatlovchi vazifasini og‘irlilik markazining gorizontal koordinatasini bajaradi, traktor ning og‘irligi esa murakkab bog‘liqlikka ega, chunki

uning ag‘daruvchi omillarga ham ta’siri bor. Bundan tashqari  $U_{ol}$  ning miqdoriga traktor (avtomobil) ning bo‘ylama bazasi ham ta’sir etadi.

Tenglamadagi qolgan hadlar:

$$(-R_u h_{il} - (G_t \sin\alpha + R_j)h - M_{sk} - M_{sp} - M_{jol} \text{ va } M_{jor}), \quad (3.8)$$

esa tractor (avtomobil) ning ag‘darilishiga olib keladi. Bu hadlarni tahlil qilib chiqamiz.

$R_u h_{il}$  - urinma kuchdan hosil bo‘layotgan ag‘daruvchi momentning miqdori urinma kuch va ilgak bilan harakat tekisligi orasidagi masofaga tug‘ri proporsional bog‘liq. Demak urinma kuch katta bo‘lsa traktor (avtomobil) ning ag‘darilishi nisbatan kichik burchaklarda ham sodir bo‘ladi. Traktor (avtomobil) o‘rnidan ko‘zg‘alishida va ish bajarayotganda ilgakning yerdan masofasi iloji boricha qancha kichik bo‘lsa, turg‘unligi shuncha yaxshi bo‘ladi. Demak harakat vaqtida osma mexanizm yordamida ilgakni mumkin qadar past holatda bo‘lishi traktor (avtomobil) aggregatining turg‘unligini yaxshilaydi.

$G_t \sin\alpha h$  - qiyalikdan yuqoriga chiqishdagi qarshilik kuchi ( $G_t \sin\alpha$ ) dan hosil bo‘lgan traktor (avtomobil) ni ag‘daruvchi moment. Bu kuch yo‘ning qiyaligiga va og‘irlik markazining vertikal koordinatasiga tug‘ri proporsional. Demak bu kuchning ta’sirini kamaytirish uchun yo‘l qiyaligini kamaytirish va tractor (avtomobil) ning og‘irlik markazini pastroq joylashtirish kerak.

$R_j h$  - traktor (avtomobil) ning tezlanishidan hosil bo‘lgan inersiya kuchi ta’siridan hosil bo‘ladigan ag‘anatish momenti. Inersiya kuchidan ag‘daruvchi momentni kamaytirish maqsadida traktor (avtomobil) ning og‘irlik markazini pasaytirish va tezlikni asta oshirish (kichik tezlanishda ohista harakatlanish) lozim. Aytib o‘tish kerakki, traktor (avtomobil) sekinlanish bilan harakatlanganda inersiya kuchining ishorasi o‘zgarib traktor (avtomobil) ning ag‘darilishiga qarshi, ya’ni muvozanatlovchi moment hosil qiladi.

$M_{sk} - M_{sp}$  - yetakchi va yetaklanuvchi g‘ildiraklarning yumalashga qarshilik momentlarining miqdori harakat tekisligiga normal reaksiya kuchlari ( $U_{ol}$  va  $U_{or}$ ) hamda ishqalanish-yumalash yelkalari ( $a_k$  va  $a_p$ )ga bog‘liq. Ishqalanish-yumalash yelkalari miqdori shina ichidagi bosim va tuproqning deformatsiyalanish darajasiga bog‘liq. Deformatsiyalanmaydigan yerda shina ichidagi bosim yuqori bo‘lsa,  $a_k$  va  $a_p$  larning miqdori kamayadi va natijada g‘ildiraklarning yumalash

qarshilik momentini ham kamayishiga olib keladi. Deformatsiyalanadigan yerda ishqalanish-yumalash yelkalarini kamaytirish uchun shina ichidagi bosimni kamaytirish kerak. Bunda shinaning yer bilan tutashish yuzasi ortib, deformatsiya miqdori kamayadi va natijada ishqalanish-yumalash yelkalari hamda g'ildiraklarning yumalashga qarshilik momenti kamayadi.

G'ildiraklarining urinma inersiya momentlari ( $M_{j_1}$  va  $M_{j_2}$ ) traktor (avtomobil) ning turg'unligiga salbiy ta'sir qiladi. Urinma inersiya momentlari g'ildirakning burchak tezlanishiga hamda inersiya momentiga bog'liq, yani  $M_j = \varepsilon J_{in}$  inersiya momenti g'ildirakning o'lchamlariga, yani uning inersiya radiusiga bog'liq. G'ildirakning burchak tezligi qancha katta bo'lsa inersiya momenti shuncha yuqori bo'ladi.

Aytib o'tish lozimki, traktor (avtomobil) sekinlashish bilan qiyalikdan pastga harakatlanganda  $P_j h, G_t \sin\alpha h, M_{j_{ol}}$  va  $M_{j_{or}}$  lar o'z ishoralarini o'zgartirib, traktorning ag'darilishiga qarshilik ko'rsatuvchi momentga aylanadilar.

Tenglamadagi  $U_{ol}$  traktor (avtomobil) ning ag'darilmaslik zohirasini bildiradi va uning miqdori qancha ko'p bo'lsa shunchalik traktor ishonchli ag'darilmasdan harakatlanadi.

Amalda turg'unlikni yaxshilash uchun traktor (avtomobil) ga qo'shimcha ballast yuklar o'rnatish hamda qishloq xo'jalik va meliorativ mashinalarining o'rnatilishida og'irlilik markazini iloji boricha pasaytirish imkonini qilish lozim.

Amaliy mashg'ulotda bir necha cheklanuvlarni qabul qilib, ya'ni ba'zi ko'rsatkichlarning ta'sirini inobatga olmay, traktor (avtomobil) ning ilgakdagi kuch bilan ideal yo'lda ( $M_{sk} \text{ va } M_{sp} = 0$ ) bir tekis harakatlangandagi ( $R_j; M_{j_1}; M_{j_2} = 0$ ), hamda faqat o'ta yomon yo'lda ilgakdagi kuch bo'limganda harakatlangandagi turg'unliklarini ko'rib chiqamiz.

#### **4. Traktor (avtomobil) ning ideal yo'lda ilgakdagi kuch bilan bir tekis harakatlangandagi dinamik turg'unligi**

Ideal yo'l deb traktor (avtomobil) ga ta'sir etuvchi g'ildiraklarning yumalash qarshiligi kuchini nolga tenglaymiz va bundan kelib chiqqan holda ( $M_{sk} \text{ va } M_{sp} = 0$ ) bo'ladi. Traktor (avtomobil) bir tekis harakatlanganda esa ( $R_j; M_{j_1}; M_{j_2} = 0$ ) teng bo'ladi.

Bu holatda traktor (avtomobil) ning ag‘darilish nuqtasi ilgakdagi kuchning miqdoriga bog‘liq holda birinchi ishchi uzatmadagi nominal yuklanishda 0 nuqtada deb qabul qilamiz. Shu sababli yuqorida keltirilgan cheklanishlarni inobatga olib traktor birinchi ishchi uzatmada harakatlangandagi ag‘darilish nuqtasi 0 ga nisbatan momentlar tenglamasini tuzamiz,  $\sum M_0 = 0$ :

$$U_{ol}L - aG_t \cos\alpha + R_{u1}h_{il} + G_t \sin\alpha(h - h_{il}) = 0. \quad (3.9)$$

bundan, ag‘anamaslik sharti  $U_{ol}$  ga bog‘liq bo‘lganligi sababli uni aniqlaymiz:

$$U_{ol} = \frac{aG_t \cos\alpha - R_{u1}h_{il} - G_t \sin\alpha(h - h_{il})}{L} \geq 0, \quad (3.10)$$

Bu yerda,  $R_{u1}$ - birinchi uzatmadagi urunma kuch.

Traktor (avtomobil) ning dinamik kritik, ya’ni harakatdagi maksimal ag‘anamaslik burchagida  $U_{ol} = 0$  teng bo‘lganda sodir bo‘ladi, buni inobatga olgan holda:

$$R_{u1} \leq \frac{(aG_t \cos\alpha - G_t \sin\alpha(h - h_{il}))}{h_{il}} = f(\alpha), \quad (3.14)$$

Agarda  $\alpha = \alpha_{\lim}$  deb faraz qilsak, bu tenglamaning suratida quyidagi o‘zgarishlar bo‘ladi:

$$(aG_t \cos\alpha_{\lim} - hG_t \sin\alpha_{\lim} + h_{il}G_t \sin\alpha_{\lim}), \quad (3.15)$$

bundan:  $(aG_t \cos\alpha_{\lim} - hG_t \sin\alpha_{\lim}) = 0$ , ya’ni limit burchagida stabillovchi va ag‘anatuvchi momentlar bir biriga teng. Buni inobatga olganimizda (3.10) dan:  $R_{u1} \leq G_t \sin\alpha_{\lim}$  Bundan,

$$\sin\alpha_{\lim} \leq \frac{R_{u1}}{G_t}, \quad (3.20)$$

Bu shart faqat energiya mujassamlagan traktorlarda (barcha zamonaviy traktorlar energiya mujassamlangan) yoki traktorning eng yuqori uzatmalarda harakatlanganda bu shart bajarilishi mumkin. Ya’ni, traktorning urinma kuchi  $G_t \cos\alpha_{\lim}$  dan kichik bo‘lishi kerak. Zamonaviy yuqori energiya mujassamlangan traktor (avtomobil) larda yuqorida

ko'rsatilgan shart bajarilmaydi va traktor (avtomobil) ning dinamik turg'unligini dinamik tavsif yordamida tahlil qilib, kritik burchak aniqlanadi.

Traktor (avtomobil) ning tepalikka chiqishdagi kritik burchakni aniqlash tenglamadagi stabillovchi va ag'anatuvchi momentlarning farqi yordamida aniqlanadi. Buni jadval sifatida topamiz:

3.1-jadval.

| $\alpha$ , gradus | $\frac{aG_t \cos \alpha}{h_{il}}$ | $\frac{G_t \sin \alpha (h - h_{il})}{h_{il}}$ | $f_1(\alpha)$ |
|-------------------|-----------------------------------|---|---------------|
| 0                 |                                   |   | maksimum      |
| 10                |                                   |   |               |

3.1-jadval davomi

|                |  |  |                     |
|----------------|--|--|---------------------|
| 20             |  |  |                     |
| 30             |  |  |                     |
| 40             |  |  |                     |
| $\alpha_{lim}$ |  |  | $\sin \alpha_{lim}$ |

Jadvaldan foydalanib yuqorida keltirilgan sharoit uchun tractor (avtomobil) ning dinamik turg'unligi diagrammasini chizamiz

$$f(\alpha) = f_1(\alpha).$$

So'ng traktoring birinchi uzatmada nominal rejimda ishlagandagi urinma kuchini aniqlab turg'unlik diagrammasida kritik burchagini aniqlaymiz (3.6-rasm).

## 5.Traktor (avtomobil) ning juda yomon yo'lda bir tekis harakatlangandagi turg'unligini aniqlash

Traktor (avtomobil) ning juda yomon yo'lda yetakchi g'ildiraklari pona holatiga yaqin holatga tushgandagi harakatlanish sxemasi 3.5-rasmda keltirilgan. Bunda ag'darilish traktor (avtomobil)ning yetakchi g'ildiraklarining aylanish o'qi atrofida sodir bo'ladi. Shu sababli ag'darilish nuqtasi bo'lgan yetakchi g'ildiraklarning aylanish o'qiga nisbatan traktor (avtomobil) ga ta'sir etuvchi barcha kuchlarning moment tenglamasini tuzamiz,  $\sum M_0 = 0$ :


$$Y_{ol}L - aG_t \cos\alpha + P_{u1}r_k + G_t \sin\alpha(h - r_k) = 0, \quad (3.21)$$

bundan,

$$Y_{ol} = \frac{aG_t \cos\alpha + P_{u1}r_k + G_t \sin\alpha(h - r_k)}{L} \geq 0, \quad (3.22)$$

Kritik burchakni aniqlash uchun ag‘anamaslik sharti  $Y_{ol} \geq 0$  dan foydalanib va maksimal kritik burchakni aniqlash uchun  $Y_{ol} = 0$  ga tenglaymiz va quyidagi bog‘liqlikni aniqlaymiz:

$$P_{u1} \leq \frac{(aG_t \cos\alpha - G_t \sin\alpha(h - r_k))}{r_k} = f_2(\alpha). \quad (3.23)$$



3.5-rasm. Traktor (avtomobil) ning juda yomon yo‘lda bir tekis harakatlangandagi kuchlar sxemasi

Yuqorida aytilgan usulda muvozanatlanuvchi va ag‘daruvch kuchlar burchakliarning o‘zgarishi bo‘yicha jadvalini tuzamiz.

3.2-jadval

| $\alpha$ , gradus | $\frac{aG_t \cos\alpha}{r_k}$ | $\frac{G_t \sin\alpha(h - r_k)}{r_k}$ | $f_2(\alpha)$ |
|-------------------|-------------------------------|---------------------------------------|---------------|
|                   |                               |                                       |               |

|                | Ag‘darilishga qarshi moment | Ag‘daruvchi moment | Momentlar farqi    |
|----------------|-----------------------------|--------------------|--------------------|
| 0              |                             |                    |                    |
| 10             |                             |                    |                    |
| 20             |                             |                    |                    |
| 30             |                             |                    |                    |
| 40             |                             |                    |                    |
| 50             |                             |                    |                    |
| $\alpha_{lim}$ |                             |                    | $\sin\alpha_{lim}$ |

3.2-jadvaldan foydalanib traktor (avtomobil) ning juda yomon yo‘l sharoiti uchun uning dinamik turg‘unligi diagrammasini  $f(\alpha) = f_2(\alpha)$  chizamiz.


Yuqorida keltilgan ikki sharoit uchun kritik ag‘darilish burchaklari traktor (avtomobil) ning yetakchi g‘ildiraklaridagi urunma kuchga bog‘liq. Eng og‘ir sharoit, traktorning ishchi diapazondagi birinchi uzatmasida nominal rejimida harakatlanganda hosil bo‘ladi, shuning uchun birinchi uzatmadagi urinma kuchni aniqlaymiz.

$$P_{u1} = \eta_m \frac{M_{dn} i_1}{r_k}, \quad (3.24)$$

Bu yerda,  $\eta_m$  - transmissiyaning foydali ish koeffitsiyentini quyidagi soddalashtirilgan empirik formula yordamida aniqlanadi:

$$\eta_m = \eta_s^a \eta_k^b. \quad (3.25)$$

Bu yerda:  $\eta_s$  va  $\eta_k$  - o‘z navbatida bir juft silindrsimon va konussimon shesternyalarning foydali ish koeffitsiyenti; a va b - birinchi uzatmada transmissiya orqali harakat uzatishida qatnashayotgan silindrsimon va konussimon shesternyalar juft soni.



3.6-rasm. G‘ildirakli traktoring dinamik turg‘unlik tavsifi

Dvigatelning nominal momenti:

$$M_{dn} = 9550 \frac{N_n}{n_n}. \quad (3.26)$$

Bu yerda,  $N_n$  - dvigatelning nominal quvvati, kVt;  
 $n_n$  - tirsakli valning nominal aylanishlar soni, ayl/min;  
 $i_1$  - transmissiyaning birinchi uzatishdagi uzatmalar soni;  
 $r_k$  - g‘ildirakniq yumalash radiusi, m. (birinchi ishdagidek aniqlanadi).

Birinchi uzatishdagi urinma kuchni aniqlashda dvigatelning nominal momentidan foydalandik, ammo dvigatellar korrektor zonasida ishlaganda bu moment ancha yuqori bo‘ladi ( $M_{d,max} = M_{dn} k$ ). Puflagichsiz dvigatellarda  $k=1,08\dots1,18$  larga, puflashli dvigatellarda esa  $k=1,30\dots1,50$  teng bo‘lishini inobatga olib, dvigatel nominal momenti o‘rniga puflashli uchun maksimal moment  $M_{d,max} = M_{dn} k$  ga teng qilib olish maqsadga muvofiq.

Hisoblangan  $R_{u1}$  ni qiymatini dinamik tavsifining vertikal o‘qida qabul qilingan masshtab bo‘yicha qo‘yib, hosil bo‘lgan nuqtadan gorizontal chiziq o‘tkazamiz. Bu chiziqning  $f_1(\alpha)$  va  $f_2(\alpha)$  grafiklari bilan kesishgan nuqtalarini gorizontal o‘qqa proyeksiyalaymiz. Proyeksiyalangan nuqtalar traktor (avtomobil) ning bir tekis harakatlangandagi ideal yo‘lda ilgakdagidagi

kuch bilan ( $\alpha_{kr1}$ ) hamda traktorning juda yomon yo'lda ( $\alpha_{kr2}$ ) harakatlangandagi dinamik turg'unliklarining kritik burchaklarini aniqlaymiz.

Yuqorida keltirilgan cheklanishlarni inobatga olgan holda traktor (avtomobil) ing turg'unligi ( $\alpha_{kr1}$ ) va ( $\alpha_{kr2}$ ) burchaklar bilan chegaralanadi. Demak, tepalikka harakatlanganda traktor (avtomobil) ning ag'darilmasligi uchun qiyalik ( $\alpha_{kr1}$ ) va ( $\alpha_{kr2}$ ) burchaklardan oshmasligi kerak.

## **6. Traktor (avtomobil) ning tepalikka harakatlangandagi harakat yo'nalihi (boshqaruvchanligi bo'yicha) turg'unligi**

Ilgakdagi qarshilik kuchi bilan gorizontal yo'lda yoki qiyalikdan yuqoriga harakatlanishdagi traktor (avtomobil) ning harakat yo'nalihi turg'unligi (boshqaruvchanligi) ham oldingi g'ildiraklarning yerga perpendikulyar bo'lган  $U_{ol}$  reaksiya kuchiga bog'liq. Traktor (avtomobil) ning tortish dinamikasini tahlil qilishda gorizontal yo'lda harakatlanganda traktor (avtomobil) og'irligining yetakchi g'ildiraklarga tushadigan ulushi (yetakchi g'ildiraklarning yuklanish koeffitsiyenti  $\lambda$ )  $\lambda=0,75...0,8$  ga teng qilib qabul qilingan. Demak, traktor (avtomobil) ning og'irligining 75...80% yetakchi g'ildirakka ta'sir qiladi, qolgan 20...25% oldingi g'ildiraklarga ta'sir qiladi. Oldingi g'ildiraklarning yuklanishi 20...25% dan kam bo'lsa, traktorn (avtomobil) ing turg'unligi va boshqaruvchanligi yomonlashadi. Demak traktorn (avtomobil) ing rul boshqaruvchanligini saqlash uchun tekis yo'lda  $Y_{ol}=0,2G_t$  dan kam bo'lmasligi kerak.. Traktor (avtomobil) ning harakat tezligi va yo'l notekisligiga qarab  $Y_{ol}=(0,2...0,4)G_t$  oraligida bo'lishi lozim.

O'ta notekis qiyaliklardan yuqoriga chiqishda bu miqdor bundan ham ko'p bo'lishi talab qilinadi. Chunki dala-yo'ldagi notekisliklarning ta'sirida g'ildiraklarning dinamik yuklanishi keng miqdorda o'zgaradi. Bunda ag'darilmaslik va boshqaruvchanlik shartlari bo'lган  $Y_{ol}$  ning miqdori keng me'yorda o'zagarib turg'unlik va boshqaruvchanlikni yomonlashtiradi. Bunday sharoitlarda  $Y_{ol}$  ning miqdori 0,4  $G_t$  lar atrofida bo'lishi kerak. Boshqaruvchanlikni ta'minlash uchun oldingi g'ildiraklarga ballast yuklar o'rnatish lozim.

Traktor va avtomobillar nazariyasida yetakchi g'ildiraklarning yuklanish koeffitsiyentining maksimal miqdori  $\lambda= (0,75...0,8)$  ga teng qilib olish tavsiya etilgan. Demak traktorning og'irligining 75...80% yetakchi g'ildirakka ta'sir qiladi, qolgan 20...25% oldingi g'ildiraklarga ta'sir

qiladi. Oldingi g'ildiraklarning yuklanishi 20...25% dan kam bo'lsa, traktoring turg'unligi va boshqaruvchanligi yomonlashadi. Bundan kelib chiqqan holda traktor (avtomobil) ning boshqaruvchanligini ta'minlash uchun  $U_{ol}=(0,2...0,3)G_t$  deb qabul qilamiz. Demak traktor (avtomobil) ning rul boshqaruvchanligini saqlash uchun tekis yo'lida  $Y_{ol}=0,2G_t$  dan kam bo'lmasligi kerak.. Traktor (avtomobil) ning harakat tezligi va yo'l notekisligiga qarab  $Y_{ol}=(0,2...0,4)G_{st}$  oraligida bo'lishi lozim. O'ta notekis qiyaliklardan yuqoriga chiqishda bu miqdor bundan ham ko'p bo'lishi talab qilinadi.

Chunki dala-yo'l dagi notekisliklarning ta'sirida g'ildiraklarning dinamik yuklanishi keng miqdorda o'zgaradi. Bunda ag'darilmaslik va boshqaruvchanlik shartlari bo'lgan  $Y_{ol}$  ning miqdori keng me'yorda o'zgarib turg'unlik va boshqaruvchanlikni yomonlashtiradi. Bunday sharoitlarda  $Y_{ol}$  ning miqdori 0,4  $G_{st}$  lar atrofida bo'lishi kerak. Boshqaruvchanlikni ta'minlash uchun oldingi g'ildiraklarga ballast yuklar o'rnatish lozim.

Rul boshqarmasi ta'sirida, ya'ni traktor (avtomobil) ning boshqaruvdagagi harakat turg'unligi shartini inobatga olgan holda  $Y_{ol}$  ni aniqlash tenglamasidan foydalanamiz:

$$Y_{ol} = \frac{aG_t \cos\alpha - R_u h_{il} - (G_t \sin\alpha + R_j)h - M_{sk} - M_{sp} - M_{j1} - M_{j2}}{L} \geq 0.$$

Bu yerda,  $(M_{sk}; M_{sp}; M_{j1}; M_{j2}) = 0$  ga tenglashtiramiz. Traktor (avtomobil) ning boshqaruvchanligi yetarli darajada bo'lishi uchun  $Y_{ol}=(0,2...0,4)G_t$  oralig'ida bo'lishi kerak.

$$\frac{Y_{ol}}{G_t} \geq \frac{(a \cos\alpha - h \sin\alpha)}{\frac{L - R_u h_{il}}{LG_t}} = f(\alpha).$$

$$Y_{ol}/G_t \geq (a \cos\alpha - h \sin\alpha)/L - R_u h_{il}/L \quad G_t = f(\alpha), \quad (1.39)$$

$P_u = P_{il} + P_f$  ekanligini, ya'ni ma'lum bir uzatmada dvigatel nominal rejimda ishlaganda traktor (avtomobil) harakatlanganda dala – yo'l sharoitining yomonlashishi, boshqaruvchanlikni ta'minlash uchun urinma (ilgakdagi) kuchining kamayishini talab qiladi. Natijada traktor (avtomobil) ning turg'unlik va boshqaruchanlik bo'yicha tortish xususiyati yomonlashadi, hamda ish unumi kamayadi.

$$P_{ol}/G_t \geq (a \cos\alpha - h \sin\alpha)/L - (P_{il} + P_f) h_{il}/LG_t = f(\alpha), \quad (1.40)$$

$$\frac{P_{ol}}{G_t} \geq \frac{(a \cos\alpha - h \sin\alpha)}{\frac{L - (P_{il} + P_f) h_{il}}{LG_t}} = f(\alpha).$$

Traktor (avtomobil) ning urinma kuchi (ilgakdag'i qarshilik kuch) dvigatelning nominal rejimida aniqlanadi,  $P_f$  kuchi esa dala – yo'1 sharoitini hisobga oladi, ya'ni ( $P_{u.n.} = P_{il} - P_f$ ).  $P_u$  ning minimal miqdorini  $P_f$  ga teng qilib qabul qilamiz.

Dala-yo'1 qiyaligi burchagini qiymatlarini o'zgartirgan holda  $\frac{P_{il}}{G_t}$  ning qiymatini o'zgarishini jadval bo'yicha aniqlaymiz.

3.3-jadval

| $\alpha$ , gradus | $\frac{acos\alpha - hsina}{L}$ | $\frac{(P_u - P)h_{il}}{LG_t}$ | $f(\alpha)$ |
|-------------------|--------------------------------|--------------------------------|-------------|
| 0                 |                                |                                |             |
| 5                 |                                |                                |             |
| 10                |                                |                                |             |
| 15                |                                |                                |             |
| 20                |                                |                                |             |
| 25                |                                |                                |             |
| 30                |                                |                                |             |
| 35                |                                |                                |             |
| 40                |                                |                                |             |
| $\alpha_{lim}$    |                                |                                |             |

## 7. Traktor (avtomobil) ning boshqaruvchanligini oldingi g'ildiraklarga ta'sir etuvchi kuch miqdori bilan aniqlash

Oldingi g'ildiragiga ta'sir etuvchi kuchning shinaning yonga ilashish koeffitsiyentiga ko'paytmasi traktorning burilish momentini beradi. Demak oldingi g'ildirakdag'i minimal og'irlilik kuchini qiyalik burchagining

oshishi bo'yicha har xil ilashish koeffitsiyentlari bo'yicha aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega. Buni aniqlash uchun quyidagi tenglamadan foydalanamiz:

$$Y_{ol} = \frac{aG_t \cos\alpha - Ph_{il} - (G_t \sin\alpha + P)h - M_{sk} - M_{sp} - M_{j1} - M_{j2}}{L}$$

Bu yerda,  $P_j; M_{sk}; M_{sp}; M_{j1}; M_{j2} = 0$  deb qabul qildamiz, unda;

$$P_{ol} \geq \frac{aG_t \cos\alpha - G_t \sin\alpha h - R_{il} h_{il}}{L} = f(\alpha).$$

3.4-jadval

| $\alpha$ , gradus | $\frac{aG_t \cos\alpha}{L}, (kN)$ | $\frac{G_t \sin\alpha h - R_{il} h_{il}}{L}, (kN)$ | $f(\alpha), (kN)$ |
|-------------------|-----------------------------------|--|-------------------|
| 0                 |                                   |  |                   |
| 10                |                                   |  |                   |
| 20                |                                   |  |                   |

3.4-jadval davomi

|    |  |  |  |
|----|--|--|--|
| 30 |  |  |  |
| 40 |  |  |  |
| 50 |  |  |  |

## 8. Traktor (avtomobil) ning sirpanmaslik sharti

Maksimal statik turg'unlikni ta'minlash uchun limit burchakda tormozlovchi g'ildiraklarda hosil bo'ladigan ilashish kuchi traktorni pastga sirpanmasligini ta'minlash kerak. Ma'lumki ilashish kuchi g'ildiraklarga tushadigan harakat tekisligiga perpendikular bo'lgan og'irlik kuchi ( $\lambda G_t \cos\alpha$ ) ga va tayanch tekisligining holatini bildiruvchi ilashish koeffitsiyenti ( $\varphi$ ) ga bog'liq :

$$P_t = \varphi \lambda G_t \cos\alpha, \quad (3.27)$$

G'ildiraklarning sirpanmaslik shartini aniqlash uchun tormozlangan traktorga ta'sir etuvchi barcha kuchlarni harakat tekisligiga parallel bo'lgan o'qqa proyeksiyalaymiz (1.3-rasm), ya'ni  $\sum X = 0$ :

$$P_t - G_t \sin\alpha = 0, \quad (3.28)$$

$$P_t = P - P_{t.or}. \quad (3.29)$$

Bu yerda:  $P_{t.ol}$  va  $P_{t.or}$ - oldingi va orqa g'ildiraklarning tormozlash kuchlari.

Bu yerda:  $\varphi$ -tormozlanuvchi g'ildiraklarning yer bilan ilashish koeffitsiyenti;  $\lambda$  - tormozlanuvchi g'ildiraklarga (yetakchi g'ildirakka) ta'sir etadigan traktor (avtomobil) ning og'irlik kuchining ulushi.

Orqadagi  $P_{t.or}$  va  $P_{t.ol}$  oldingi o'qlardagi g'ildiraklarning tormozlash darajasi tormoz qo'yilgan g'ildiraklarning soniga bog'liq. Burchak  $\alpha$  oshishi bilan  $P_{t.or}$  ning miqdori oshib,  $P_{t.ol}$  miqdori esa kamayib boradi. Shu sababli traktor qiyalikdan yuqoriga harakatlanganda orqadagi g'ildiraklarga tormozlar o'rnatilgan bo'lsa maksimal tormozlash kuchining qiyalikning oshishi bilan ortadi. Traktor (avtomobil) qiyalikdan pastga harakatlanganda yoki to'xtab turganda, burchak oshishi bilan tormozlash kuchi kamayib boradi, chunki tormozlar o'rnatilgan g'ildiraklarga ta'sir etuvchi yuklanish kamayadi. Shu sababli pastga qarab to'xtab turgan traktoring sirpanmaslik sharti ko'p hollarda bajarilmaydi.

Traktor (avtomobil) ning og'ish burchagi oshishi bilan  $\lambda$  o'zgarib borib, uning miqdori oshib boradi va  $\alpha = \alpha_{lim}$  bo'lganda, faqat orqadagi g'ildiraklarda tormoz o'rnatilganda ham  $\lambda=1$  bo'ladi. Demak limit burchakda traktor (avtomobil) og'irligining harakat tekisligiga perpendikulyar teng ta'sir etuvchisi ( $G_t \cos\alpha$ )  $Y_{or}$  ga teng bo'ladi, chunki  $Y_{ol}=0$ . Bundan kelib chiqqan holda faqat orqa g'ildiraklarda tormoz o'rnatilganda yuqoriga qarab to'xtab turgan traktorda ham limit burchak uchun maksimal tormozlash kuchi (3.31) tenglama bilan bir xilda bo'ladi. Barcha g'ildiraklarda tormoz qo'yilganda esa traktoring tormozlash kuchi  $\alpha$  burchakka bog'liq bo'lmasdan ( $\lambda = 1$ ) doimiy miqdorga ega bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$Y_t = \varphi G_t \cos\alpha, \quad (3.30)$$

Limit burchagida sirpanmaslik shartini aniqlash uchun (3.30) ni (3.29) ga ko'yamiz:

$$\varphi G_t \cos\alpha - G_t \sin\alpha = 0 \quad yoki \quad \varphi G_t \cos\alpha = G_t \sin\alpha,$$

Bundan:

$$tg\alpha \leq \varphi. \quad (3.31)$$

Traktor (avtomobil) ning sirpanmasligi sharti, tormozlanuvchi g'ildirakning yer bilan ilashish ( $\varphi$ ) koeffitsiyentiga bog'liq. Sirpanmaslik shartida traktor (avtomobil) turgan qiyalik burchagining tangensi g'ildiraklarning yer bilan ilashish koeffitsiyentidan katta bo'lmasligi kerak.

### **Hisobot tayyorlash**

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo'yicha o'rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.
2. G'ildirakli traktor (avtomobil) ning ko'tarilishda va tushishda statik turg'unligi burchagi -  $\alpha_{lim}$  ni va dinamik turg'unligi burchagi  $\alpha_{kr1}$  va  $\alpha_{kr2}$  ni yozib oling va 3.3-jadvalga kriting.
3. G'ildirakli traktor (avtomobil) ning statik va dinamik turg'unlik burchaklarini aniqlash bo'yicha bajarilgan hisoblash natijalarini tahlil qiling.
4. G'ildirakli traktor (avtomobil) ni tepaga yoki pastga qarab yo'llarda va dala sharoitida chegaraviy va kritik burchaklarda foydalanish bo'yicha tavsiyalar bering.

#### 3.5-jadval

G'ildirakli traktor (avtomobil) ning statik va dinamik turg'unligi asosiy ko'rsatkichlari (hisoblash natijalari asosida)

| Traktor<br>(avtomobil)<br>rusumi<br>va nomi               | Ko'tarilishdagi<br>chegaraviy<br>burchak, $\alpha_{lim}$ | Tushishda<br>agi<br>chegaraviy<br>burchak, $\alpha_{lim}$ | Ideal<br>yo'ldagi<br>kritik<br>burchak, $\alpha_{kr1}$ | Juda emon<br>yo'lda yrganda<br>kritik burchak,<br>$\alpha_{kr2}$ |
|---|--|---|--|--|
| Hisoblashlar natijasida aniqlangan parametrlar qiymatlari |  |   |  |  |
|   |  |   |  |  |

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi variantlarda bajaring (3.6-jadval).

6. Xulosa:

(bajarilgan ish bo'yicha talaba tomonidan to'ldiriladi)

|  |        |  |
|--|--------|--|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |        | «Traktor va avtomobillar<br>nazaryasi” fani<br>202.... – 202... o'quv yili |
| Bajardi:   | Guruh: | G'ildirakli traktor<br>(avtomobil) bo'ylama                                |
|  |        |  |

|              |                     |   |
|--------------|---------------------|---|
| Qabul qildi: | 3-amaliy mashg‘ulot | turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish |
|--------------|---------------------|---|

Ilova

### 3.6-jadval

G‘ildirakli traktor va avtomobilarning bo‘ylama turg‘unligini aniqlash uchun kerakli ma’lumotlar (variantlar)

| T/<br>r | Traktor va<br>avtomobil<br>rusumi | Traktor va avtomobil<br>og‘irlilik markazi<br>koordinatalari, mm |      | Bo‘ylama<br>baza, L<br>mm | Tirkama<br>balandligi, h <sub>kr</sub><br>mm |
|---------|-----------------------------------|--|------|---------------------------|--|
|         |                                   | “a”  | “h”  |                           |  |
| 1.      | T-16M                             | 454  | 795  | 2500                      | 500  |
| 2.      | TTZ-60.10                         | 662  | 1020 | 2177                      | 500  |
| 3.      | TTZ-60.11                         | 770  | 1050 | 2250                      | 500  |
| 4.      | MTZ-80                            | 875  | 900  | 2370                      | 396...404                                    |
| 5.      | MTZ-80X                           | 705  | 1065 | 2470                      | 396...404                                    |
| 6.      | T-150K                            | 1820   | 966  | 2860                      | 369  |

### 3.6-jadval davomi

|    |         |      |     |      |     |
|----|---------|------|-----|------|-----|
| 7. | GAZ-53A | 1750 | 820 | 3700 | 565 |
| 8. | ZIL-130 | 1800 | 800 | 3800 | 570 |

### Nazorat savollari

1. G‘ildirakli traktor (avtomobil) ning bo‘ylama turg‘unligi mezoni nima?
2. Statik va dinamik turg‘unlik tushunchalari o‘rtasidagi farq nimadan iborat?
3. Quyidagilar qanday aniqlanadi:
  - traktor (avtomobil) ning maksimal ko‘tarish burchagi?
  - traktor (avtomobil) qiyaligining maksimal burchagi?
4. Ideal deb qanday yo‘lga aytamiz?
5. Ideal yo‘l uchun traktor (avtomobil) kritik burchagi qanday tartibda aniqlanadi?
6. Juda yomon yo‘l deb qanday yo‘lga aytamiz?
7. Juda yomon yo‘l uchun traktor (avtomobil) kritik burchagi qanday tartibda aniqlanadi?

## 4-AMALIY MASHG‘ULOT ZANJIRLI TRAKTOR BO‘YLAMA TURG‘UNLIGINI ANIQLASH VA UNI TAHLIL QILISH

**Ish maqsadi.** Kompyuterda zanjirli bo‘ylama turg‘unligini aniqlash, tahlil qilish uslubi bilan tanishish va bo‘ylama turg‘unlik tavsifini qurish.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

### **Mashg‘ulot mazmuni**

Amaliy ishlarni bajarish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Zanjirli traktoring bo‘ylama turg‘unligi mezoni.
2. Zanjirli traktor yuqori va pastga qarab to‘xtab turgan holatida bo‘ylama statik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.
3. Zanjirli traktor agregat bilan yuqoriga qarab harakat qilayotgandagi bo‘ylama dinamik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.
4. Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha xulosa yozish.

### **Ishni bajarish uslubiyoti**

#### **1. Zanjirli traktoring bo‘ylama turg‘unligi mezoni**

Dinamik turg‘unligini umumiy holda aniqlash uchun traktoring ilgakdagi kuch bilan, tezlanishda yo‘qoriga harakatlangandagi sharoitda tahlil qilamiz. 4.1-rasm da umumiy holdagi traktorga ta’sir etuvchi kuch va momentlar ko‘rsatilgan.

Zanjirli traktoring to‘xtab turgandagi va harakatlangandagi bo‘ylama turg‘unligidagi ag‘anamaslik sharti bosim markazining koordinatasi ( $X_d$ ) ga bog‘liq. Zanjirli traktoring turg‘unligi undagi yurish qismining konstruksiyasiga ham bog‘liq. Hozirgi davrda qishloq va suv xo‘jaligi traktorlarida elastik hamda yarim bikr osmali yuritgichlar qo‘llanilmoqda.

Elastik osmali traktoring ag‘anamaslik sharti quyidagicha bo‘ladi:

$$l_k \leq X_d \leq l_p , \quad (4.1)$$

Yarim bikr osmalikniki esa:


$$S_k \leq X_d \leq S_p . \quad (4.2)$$

Bu yerda,  $X_d$  - zanjirli yuritmaning tayanch yuzasidagi bosim markazi koordinatasi, mm.

Yurish qismi zanjiriga harakat tekisligiga perpendikulyar bo'lgan reaksiya kuchlarining teng ta'sir etuvchisi ( $Y$ ) dan yetakchi g'ildirakning yerga perpendikulyar o'qigacha bo'lgan masofasiga bosim markazi koordinatasi deyiladi. Reaksiya kuchlarining teng ta'sir etuvchisi ta'sir nuqtasi ( $D$ ) bosim markazi deyiladi.

$\ell_k$  va  $\ell_p$ -mos holda orqangi va oldingi balansir karetkalarining o'qlarini harakat tekisligiga proyeksiyasidan yetaksi g'ildirakning harakat tekisligiga perpendikulyar o'qigacha bo'lgan masofa, m.;

$S_k$  va  $S_p$  - mos holda zanjirning tayanch yuzasini orqangi va oldingi chekkalaridan yetakchi g'ildirakning harakat tekisligiga perpendikulyar o'qigacha bo'lgan masofa, m.



4.1-rasm. Umumiy holdagi traktorga ta'sir etuvchi kuch va momentlar

Aytib o'tish kerakki, yarim bikr osmali yurish qismida yetakchi g'ildirak harakat tekisliga juda yaqin joylashgan, shu sababli  $S_k = 0$  ga va  $S_p = L$  ga teng qilib olish katta xatoliklarga olib kelmaydi.

## 2.Zanjirli traktorning statik bo'ylama turg'unligi

Zanjirli traktorning statik turg'unligini aniqlashda tormozlangan holdagi yuqoriga va pastga qarab to'xtab turgandagi traktorning elastik va yarim bikr osmali uchun kuchlar ta'siri sxemalarini chizamiz. 4.1-rasmda

bu ikki turdagи yuritgichli traktorlarning statik turg‘unligini aniqlash uchun masshtabda chizilgan sxemalari keltirilgan.

Turg‘unlikning umumiy qoidalarida aytilganidek, traktorning ag‘darilish nuqtasiga nisbatan kuchlar tenglamasini keltirib chiqaramiz, ( $\sum M_0=0$ ):

Elastik osmali traktor yuqoriga qarab turgandagi holat uchun:

$$(a - l_k)G_t \cos \alpha - U(X_d - l_k) - G_t \sin \alpha h = 0, \quad (4.3)$$

$X_d = l_k$  teng bo‘lganda  $\alpha = \alpha_{lim}$  tenglashadi, ya’ni eng katta statik turg‘unlik burchagiga tenglashadi. Unda  $U(X_d - l_k) = 0$  bo‘ladi va yuqoridagi tenglamani quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$(a - l_k)G_t \cos \alpha_{lim} - G_t \sin \alpha_{lim} h = 0$$

bundan;

$$\operatorname{tg} \alpha_{lim} = \frac{(a - l_k)}{h}. \quad (4.4)$$

Yurish qismi yarim bikr osmali traktor uchun, ( $\sum M_0=0$ ):

$$(a - S_k)G_t \cos \alpha - U(X_d - S_k) - G_t \sin \alpha h = 0,$$

bundan  $(X_d - S_k) = 0$  bo‘lsa, unda:

$$(a - S_k)G_t \cos \alpha_{lim} - G_t \sin \alpha_{lim} h = 0 \text{ bundan;}$$

$$\operatorname{tg} \alpha_{lim} = \frac{a - S_k}{h}, \quad (4.5)$$

Masofa  $S_k=0$  deb qabul qilsak, ag‘darilish nuqtasi yetakchi g‘ildirakning yer bilan tutashadigan nuqtasida bo‘ladi va bu nuqtaga nisbatan olingan moment tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\operatorname{tg} \alpha_{lim} = \frac{a}{h}. \quad (4.6)$$

Traktorning pastga qarab to‘xtab turgandagi maksimal limit burchaklarni aniqlash uchun barcha kuchlarning ag‘darilish nuqtasi 0 ga nisbatan moment tenglamalarini tuzamiz:


Yurish qismi elastik osmali traktor uchun:

$$(l_p - a)G_t \cos\alpha - U(l_p - X_d) - G_t \sin\alpha h = 0, \quad (4.7)$$

$\ell_p = X_d$  ga teng bo‘lganda  $\alpha = \alpha_{lim}$  tenglashadi, ya’ni eng katta statik turg‘unlik burchagiga tenglashadi. Unda  $U(\ell_p - X_d) = 0$ .

Yuqoridagi usuldan foydalanib limit burchakni aniqlash tenglamasini keltirib chiqaramiz:

$$\operatorname{tg}\alpha_{lim} = \frac{l_p - a}{h}, \quad (4.8)$$



4.2-rasm. Zanjirli traktorning statik turg‘unligiga doir sxemalar: a- elastik yurish qimli: b - yarim bikr yurish qismli

Xuddi shu usulda yarim bikr osmali yurish qismi uchun limit burchagini aniqlaymiz:

$$\operatorname{tg}\alpha_{lim} = \frac{s_p - a}{h}, \quad (4.9)$$

Limit burchakning aniqlash formulalaridan ko‘rinib turibdiki, ag‘anamaslik burchagi traktorning kinematik ko‘rsatkichlariga, ya’ni

og‘irlik markazining koordinatasi hamda yurish qismining o‘lchamlariga bog‘liq. Shuni ta’kidlash lozimki, yarim bikr yuritgichli traktorning turg‘unligi elastik osmalinikidan yaxshiroq.

### **3.Zanjirli traktorning dinamik turg‘unligi**

Statik turg‘unlikni tahlil qilganimizda zanjirli traktor elastik yuritmali bo‘lsa, ag‘anash nuqtasi koretka o‘qini yerga bo‘lgan proyeksiyasi atrofida, yarim bikr bo‘lsa zanjirning tayanch yuzasini chetki qismi atrofida ag‘darilar ekan.


Bizning maqsadimiz maksimal tortish sharoitida traktorning kritik burchagini aniqlash, shuning uchun yuqorida aytib o‘tilganidek ag‘darilish ( $O$ ) nuqtasi atrofida sodir bo‘ladi va maksimal kritik nuqtani aniqlash uchun shu nuqtaga nisbatan traktorga ta’sir etuvchi barcha kuchlar momentining umumiy dinamik tenglamasini tuzishimiz kerak bo‘ladi, ( $\sum M_0=0$ ):

$$R_u h_{il} + U_d(X_d - l_k) - (a - l_k)G_t \cos\alpha + (G_t \sin\alpha + R_j)h + R_{il}t g\gamma(l + l_k) + R_0 h_0 = 0 \quad (4.10)$$

Bu formula traktorning tezlanish va ilgakdagagi kuch bilan qiyalikdan yuqoriga harakatlanayotgandagi turg‘unlik bo‘yicha eng og‘ir bo‘lgan sharoitdagagi kuchlar ta’sirini ko‘rsatadi. Undagi manfiy had traktorning ag‘anamasdan harakatlanishini ta’minlaydi, qolgan musbat hadlar ag‘anatuvchi moment hosil qiladi. Bu yerda traktor sekinlanish bilan qiyalikdan pastga harakatlanganda  $R_j$  va  $G_t \sin\alpha$  lar o‘z ishoralarini o‘zgartiradi va unda traktorning dinamik turg‘unligini yaxshilaydi, ya’ni barqororlovchi moment hosil qiladi.

#### **3.1. Ilgakdagagi kuch bilan ideal yaxshi yo‘lda o‘zgarmas tezlikda harakatlangan traktorning bo‘ylama turg‘unligi**

Traktorning o‘zgarmas tezlikda ( $V_t=\text{const}$ ) harakatlanganda  $R_j=0$ , ideal yaxshi yo‘lda harakatlanganda esa  $R_0=0$  va ilgakdagagi kuchning ta’sir burchagi  $\gamma \approx 0$  ga teng deb qabul qilsak, unda dinamik tenglama (4.10) quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:



4.3-rasm. Zanjirli traktorning umumiyl dinamikasi sxemasi

$$P_y h_{il} + U_d(X_d - l_k) - (a - l_k)G_t \cos\alpha + G_t \sin\alpha h = 0, \quad (4.11)$$

Elastik yuritmali zanjirli traktorning maksimal kritik burchakdagagi ag'anamaslik sharti  $X_d \geq l_k$ , ya'ni  $\alpha = \alpha_{kr}$  bo'lganda  $X_d = l_k$  tenglashadi va  $U(X_d - l_k) = 0$  aylanadi, buni inobatga olgan holda yuqoridagi tenglamani quyidagi ko'rinishga keltiramiz.


$$P_y h_{il} - aG_t \cos\alpha + G_t \sin\alpha(h - h_{il}) = 0, \text{ bundan,}$$

$$P_{y1} \leq \frac{(aG_t \cos\alpha - G_t \sin\alpha(h - h_{il}))}{h_{il}} = f(\alpha), \quad (4.12)$$

Tenglamaning yechimini har xil burchaklar uchun jadval ko'rinishga keltiramiz:

4.1-jadval

| $\alpha$ , gradus | $\frac{aG_t \cos\alpha}{h_{il}}$ | $\frac{G_t \sin\alpha(h - h_{il})}{h_{il}}$ | $f(\alpha)$ |
|-------------------|----------------------------------|---|-------------|
| 0                 |                                  |   |             |
| 10                |                                  |   |             |
| 20                |                                  |   |             |
| 30                |                                  |   |             |
| $\alpha_{lim}$    |                                  |   |             |



4.4-rasm. Zanjirli traktorning dinamik turg'unlik grafiki

Yuqoridagi formulalar elastik osmali yurish qismi uchun keltirilgan, barcha formulalardagi  $\ell_k$  o'rniga  $S_k$  qo'yib chiqsak, yarim osmali traktor uchun dinamik bo'ylama turg'unligini mustaqil yozib tahlil qilish mumkin.

Jadval yordamida zanjirli traktorning bo'ylama dinamik turg'unlik grafigini chizamiz va eng og'ir sharoit bo'lgan birinchi uzatmada maksimal kritik burchagini aniqlaymiz. Buning uchun traktorning birinchi uzatmada nominal rejimda ishlagandagi urinma kuchini topamiz:

$$P_{y1} = \frac{\eta_{mg} M_{dn} i_1}{r_k}.$$

$$\eta_{mg} = \eta_m \eta_g.$$

Bu yerda,  $\eta_m$  - transmissiyaning foydali ish koeffisiyentini g'ildirakli traktordagidek aniqlaymiz.

$\eta_g$ -zanjirning yetakchi qismining foydali ish koeffisiyenti.

Ko'p traktorlarni sinash natijasida  $\eta_g=0,96$  tengligi aniqlangan. Agarda temirdan ishlangan sharnirli zanjir o'rniga ichidan bikrlatilgan sharnirsiz rezinali yurish qismidan foydalanilsa,  $\eta_g=0,97$  ga teng bo'ladi.

Ordinata o'qi bo'yicha  $P_{y1}$  ning qiymati  $f(\alpha)$  funksiyasi uchun qabul qilingan masshtab bo'yicha qo'yib belgilaymiz. Undan gorizontal chiziq o'tkazib, bu chiziqning  $f(\alpha)$  funksiyasi chizig'i bilan uchrashgan nuqtasini gorizontal o'qiga proyeksiyasi  $\alpha_{kr}$  burchagini beradi (4.4-rasm).

## Hisobot tayyorlash

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

2. Zanjirli traktorning ko‘tarilishda va tushishda statik turg‘unligi burchagi -  $\alpha_{lim}$  ni va dinamik turg‘unligi burchagi  $\alpha_{kr}$  yozib oling va 4.2-jadvalga kriting.

3. Zanjirli traktorning statik va dinamik turg‘unlik burchaklarini aniqlash bo‘yicha bajarilgan hisoblash natijalarini tahlil qiling.

4. Zanjirli traktorni tepaga yoki pastga qarab yo‘llarda va dala sharoitida chegaraviy va kritik burchaklarda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bering.

#### 4.2-jadval

Zanjirli traktorning statik va dinamik turg‘unligi asosiy ko‘rsatkichlari  
(hisoblash natijalari asosida)

|   |   |  |  |
|---|---|--|--|
| Zanjirli traktor rusumi va nomi                           | Ko‘tarilishda gi chegaraviy burchak, $\alpha_{lim}$ | Tushishdagi chegaraviy burchak, $\alpha_{lim}$ | Ideal yo‘ldagi kritik burchak, $\alpha_{kr}$ |
| Hisoblashlar natijasida aniqlangan parametrlar qiymatlari |   |  |  |

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrлarga ega bo‘lgan variantlarda bajaring (4.3-jadval).

6. Xulosa:

(bajarilgan ish bo‘yicha talaba tomonidan to‘ldiriladi)

|  |                     |  |
|--|---------------------|--|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |                     | «Traktor va avtomobillar nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o‘quv yili |
| Bajardi:   | Guruh:              | Zanjirli traktor bo‘ylama turg‘unligini aniqlash va taxlil qilish        |
| Qabul qildi:   | 4-amaliy mashg‘ulot |  |

Ilova

#### 4.3-jadval

Zanjirli traktor va avtomobilarning bo‘ylama turg‘unligini aniqlash uchun kerakli ma’lumotlar (variantlar)

| T/r | Traktor rusumi | Traktor og‘irlilik markazi | $S_k$ , m | $l_k$ , m | $S_p$ , m | $l_p$ , m | $h_{kr}$ , m | $r_k$ , m |
|-----|----------------|----------------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|--------------|-----------|
|-----|----------------|----------------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|--------------|-----------|

|   |                   | koordinatlari, m |          |   |       |      |      |       |       |
|---|-------------------|------------------|----------|---|-------|------|------|-------|-------|
|   |                   | <i>a</i>         | <i>h</i> |   |       |      |      |       |       |
| 1 | VT-100            | 1,21             | 0,7      | - | 0,71  | -    | 1,8  | 0,33  | 0,355 |
| 2 | VT-150            | 1,23             | 0,71     | - | 0,71  | -    | 1,8  | 0,33  | 0,355 |
| 3 | T-4AM<br>«Altrak» | 1,16             | 0,71     | 0 | -     | 0,25 | -    | 0,385 | 0,424 |
| 4 | T-150             | 1,12             | 0,77     | - | 0,775 | -    | 1,95 | 0,36  | 0,379 |

## Nazorat savollari

1. Zanjirli traktor ning bo‘ylama turg‘unligi mezoni nima?
2. Statik va dinamik turg‘unlik tushunchalari o‘rtasidagi farq nimadan iborat?
3. Statik  $\alpha_{lim}$  va dinamik turg‘unlik burchagi  $\alpha_{kr}$  tushunchalari o‘rtasidagi farq nimadan iborat?
4. Zanjirli traktorning maksimal statik turg‘unlik burchagi  $\alpha_{lim}$  ning fizik ma’nosi nima?
5. Zanjirli traktorning maksimal kritik burchagi  $\alpha_{kr}$  ning fizik ma’nosi nima?
6. Zanjirli traktorning maksimal statik turg‘unlik burchagi  $\alpha_{lim}$  ning grafik usulda qanday aniqlaymiz?
7. Zanjirli traktorning maksimal kritik burchagi  $\alpha_{kr}$  ni qanday topamiz?

## 5-AMALIY MASHG‘ULOT TO‘RT G‘ILDIRAKLI (ZANJIRLI) TRAKTOR (AVTOMOBIL) KO‘NDALANG TURG‘UNLIGINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

**Ish maqsadi.** Kompyuterda to‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash, tahlil qilish uslubi bilan tanishish va ko‘ndalang turg‘unlik tavsifini qurish.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

### Mashg‘ulot mazmuni

Amaliy ishlarni bajarish tartibi quyidagilardan iborat:

1. To‘rt g‘ildirakli traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang qiyalikda sirpanmay to‘xtab turgan holatdagi statik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.

2. To‘rt g‘ildirakli traktorning ko‘ndalang qiya tekislikda harakatlanayotgandagi dinamik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.

3. Zanjirli traktorning ko‘ndalang qiyalikda sirpanmay to‘xtab turgan holatdagi statik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.

4. Zanjirli traktorning ko‘ndalang qiya tekislikda harakatlanayotgandagi dinamik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.

5. Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha xulosa yozish.

### Ishni bajarish uslubiyoti

#### **1. To‘rt g‘ildirakli traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang statik turg‘unligi**

To‘rt g‘ildirakli traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang statik turg‘unligini aniqlash uchun unga ta’sir etuvchi kuchlar sxemasini chizamiz (5.1-rasm). Ballonli traktorlar (avtomobillar) ko‘ndalang qiyalikda maksimal limit burchakda, shinani chekasidan  $0,25 b_{sh}$  masofada joylashgan chiziq (nuqta) atrofida ag‘anaydi. Bu masofa shinaning yon tomonga deformatsiyasidan hosil bo‘ladi. Aniqlangan ag‘darilish nuqtasiga nisbatan barcha ta’sir etuvchi kuchlarning moment tenglamasini tuzamiz ( $\sum M_0=0$ ):

$$U_{io}(V + 0,25b_{sh}) - G_t \cos\beta(0,5V + 0,25b_{sh} - e) + hG_t \sin\beta = 0$$

Bu yerda, V- traktorning ko‘ndalang bazasi (koleyasi), m.;

$b_{sh}$ -shinaning eni, m.;

e-traktorning og‘irlik markazini ekssentrisiteti, m.

Statik maksimal limit burchakda  $\beta = \beta_{lim}$ , turg‘unlik sharti ( $U_{io} \geq 0$ ) dan kelib chiqgan holda  $U_{io} = 0$  tenglaymiz.


$$-G_t \cos\beta_{lim}(0,5V + 0,25b_{sh}) + hG_t \sin\beta_{lim} = 0, \quad (5.1)$$

Bu tenglamada  $G_t \cos\beta_{lim}(0,5V + 0,25b_{sh})$  moment traktorning ag‘darilishiga qarshi ta’sir etib,  $h G_t \sin\beta_{lim}$  moment esa traktorni ag‘darilishiga olib keladi. Limit burchagi ag‘darilishga qarshi va

ag‘anatuvchi momentlar nisbatidan hosil bo‘lgan quyidagi teglamadan aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \beta_{lim} = \frac{(V+0,25b_{sh}-e)}{h}, \quad (5.2)$$

Tenglamadan ko‘rinib turibdiki, ko‘ndalang turg‘unligining limit burchagi traktoring koleyasi (izi) ( $V$ ), shinasining eni ( $b_{sh}$ ), og‘irlik markazining eksentrisiteti ( $e$ ) va og‘irlik markazining balandligi ( $h$ )ga bog‘liq. Bu yerda, turg‘unlik burchagini oshirish maqsadida ( $V$ ) va ( $b_{sh}$ ) larning o‘lchamlarini oshirish, ( $h$ ) va ( $e$ ) o‘lchamlarini kamaytirish kerak. Ta’kidlab o‘tish lozimki, aksariyat traktorlarda og‘irlik markazi bo‘ylama simmetrik o‘qda joylashadi, u holda eksentrisitet ( $e$ ) nolga teng bo‘ladi.



5.1-rasm. G‘ildirakli traktoring ko‘ndalang turg‘unligi sxemasi.

## 2.Zanjirli traktoring ko‘ndalang statik turg‘unligi

Ko‘ndalang statik turg‘unligini tahlil qilish uchun to‘xtab turgan zanjirli traktorga ta’sir etuvchi kuchlarning sxemasini masshtabda chizamiz (5.2-rasm). Zanjirli traktoring ag‘darilish chizig‘i qattiq yerda zanjirning tashqi qirralari atrofida sodir bo‘ladi. Shu sababli ag‘darilish chizig‘i 0 nuqtaga nisbatan traktorga ta’sir etuvchi barcha kuchlarning moment tenglamasini tuzamiz ( $\sum M_0=0$ ):

$$U_{10}(V + 0,5b_z) - G_t \cos\beta 0,5(V + b_z) - e + hG_t \sin\beta = 0. \quad (1.55)$$

Bu yerda,  $b_z$ -zanjirning eni.


Traktorning ag‘darilmaslbk sharti  $U_{10} \geq 0$  bo‘lganligi sabali eng katta limit burchak  $\beta = \beta_{lim}$  ni aniqlashda  $U_{10} = 0$  ga tenglaymiz, unda;

$$G_t \beta_{lim} (0,5(V + b_z) - e) + hG_t \sin\beta_{lim} = 0 ,$$

yoki:

$$\operatorname{tg}\beta_{lim} = \frac{(0,5(V + b_z) - e)}{h}. \quad (5.3)$$

Zanjir yuritmali traktorda ham xuddi g‘ildirakli traktornikidek, og‘irlik markazining koordinatasi, koleyasi (izi yoki ko‘ndalang bazasi) zanjirning eniga bog‘liq. Bu ko‘rsatkichlarni konstruktiv o‘zgartirish yo‘li bilan traktorning ko‘ndalang turg‘unligini oshirish mumkin. Traktor shudgorlash ishini bajarayotganda ikkala yuritgich (zanjir, g‘ildirak) bir xil sharoitda haydalmagan yerda harakatlanishini ta’minlash maqsadida konstruktorlar tomonidan iloji boricha ko‘ndalang baza (koleya)ni kichikroq qilishga harakat qilinadi.



5.2-rasm. Zanjirli traktorning ko‘ndalang turg‘unligi sxemasi

### 3.To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil)ning dinamik ko‘ndalang turg‘unliklari

To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning turg‘unligiga salbiy ta’sir etuvchi markazdan qochma kuchni traktorning bo‘ylama o‘qiga ko‘ndalang ta’sir etuvchisini aniqlaymiz:

$$R'_{ts} = R_{ts} \cos \gamma_{ts} = \frac{G_t}{g} \omega_b^2 R_{o.m} \cos \gamma_{ts} = \frac{G_t \omega_b^2 R}{g} = \left( \frac{G_t}{g} \right) \left( \frac{V_b^2}{R_b} \right), \quad (5.4)$$

Bu yerda,  $\gamma_{ts}$  - markazdan qochma kuchning ta’sir burchagi;

$V_b$  - mashinaning burilishdagi o‘rtacha tezligi;

$R_b$  - burilish radiusi.

Formuladan ko‘rinib turibdiki, mashinaning tezligi oshishi va burilish radiusining kamayishi bilan markazdan kochma kuchning miqdori ortib ketadi va bu traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang turg‘unligiga salbiy ta’sir qiladi. Ahamiyat berish lozimki, bunda tezlik kvadrat ko‘rinishda oshadi va uning turg‘unlikka ta’siri ko‘proq bo‘ladi.

Traktorni qiya tekislikdan burilib harakatlanganda, ko‘ndalang turg‘unliga uning og‘irlik markazidagi og‘irligi, burilishdan hosil bo‘ladigan markazdan qochma kuchning traktorning bo‘ylama o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan tashkil etuvchisi ( $R'_{ts}$ ) ga ta’sir etadi. Bundan tashqari, traktorning ko‘ndalang qiya tekislikda harakatlanganida dvigatelning aylanma qismlari inersiya momenti ( $M_{jm}$ ) qo‘sishimcha ag‘daruvchi moment hosil qiladi.

$M_{jm}$  inersiya momentini quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$M_{jm} = M_n(\beta - 1), \text{Nm.} \quad (5.5)$$

Bu yerda,  $M_n$  - dvigatelning nominal momenti;

$\beta$  - ilashish muftasining zohira koeffitsiyenti.

Traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang qiya tekislikdagi harakatida  $M_{jm}$ ,  $G_t \sin \beta$  va  $R'_{ts}$  kuchlariuning ag‘darilib ketishi imkonini oshirib,  $\beta_{kr}$  burchagini kamayishiga olib keladi.

Traktor (avtomobil) ning dinamik ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash uchun, uning ag‘darilish nuqtasiga (chizig‘iga) nisbatan barcha ta’sir etuvchi kuchar momenti tenglamasini tuzamiz ( $\sum M_0=0$ ):

G‘ildirakli traktor (avtomobil) uchun:

$$U_{10}(V + 0,25b_{sh}) - G_t \cos \beta (0,5V + 0,25b_{sh} - e) + h(R'_{ts} + G_t \sin \beta) + M_{jm} = 0 \quad (5.6)$$

Maksimal kritik dinamik burchak  $\beta=\beta_{kr}$  bo‘lganda,  $U_{io}=0$  teng bo‘ladi, unda:

$$-G_t \cos \beta_{kr} (0,5V + 0,25b_{sh} - e) + h(R'_{ts} + G_t \sin \beta_{kr}) + M_{jm} = 0,$$

bundan:

$$R'_{ts} \leq \frac{G_t \cos \beta_{kr} (0,5V + 0,25b_{sh} - e) - h(R'_{ts} + G_t \sin \beta_{kr}) - M_{jm}}{h} = f(\beta),$$

Zanjirli traktor uchun ag‘darilish chizig‘i zanjirning qirrasida bo‘lgani uchun, ( $\sum M_0=0$ ):

$$U_{yu}(V + 0,25b_{sh}) - G_t \cos \beta (0,5V + 0,25b_z - e) + h(R'_{ts} + G_t \sin \beta) + M_{jm} = 0 \quad (5.7)$$

bundan  $U_{yu}=0$  holat uchun:

$$R'_{ts} \leq \frac{G_t \cos \beta_{kr} (0,5V + 0,25b_{sh} - e) - hG_t \sin \beta_{kr} - M_{jm}}{h} = f(\beta).$$

Bu tenglamalar bo‘yicha kritik burchakni aniqlash uchun qiyalik ko‘ndalang burchagi  $\beta$  ga 0 dan  $\beta_{lim}$  burchakkacha qiymatlarni berib,  $f(\beta)$  funksiyasini aniqlaymiz va 5.1-jadvalga kiritamiz.

Traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang qiyalikda yuqoriga burilgandagi  $\beta_{kr}$  burchagini topish uchun markazdan qochma kuchining ko‘ndalang teng ta’sir etuvchisi  $R'_{ts}$  ni qiymatidan foydalanamiz. Buning uchun traktor (avtomobil) ning eng katta ag‘darilish xavfi bo‘lgan maksimal ishchi uzatmasidagi tezligi ( $V_{max}$ ), va traktor (avtomobil) ning minimal burilish radiusi ( $R_{b,min}$ ) dan foydalanamiz.

$$R'_{ts} = \left( \frac{G_t}{g} \right) \left( \frac{V^2}{R_b} \right). \quad (5.8)$$


$$R'_{ts} = \left( \frac{G_t}{g} \right) \left( \frac{V^2}{R_b} \right),$$

$$V_{max} = 0,377 \frac{n_n r_k}{i_{y.i.u}}$$


5.1-jadval

| T/r | B,<br>grad.   | $\frac{G_t \cos \beta_{kr} (0,5V + 0,25b_{sh} - e)}{h}, kN$ | $\frac{h G_t \sin \beta_{kr} - M_{jm}}{h}, kN$ | f( $\beta$ ),<br>kN |
|-----|---------------|---|--|---------------------|
| 1   | 0             |   |  |                     |
| 2   | 10            |   |  |                     |
| 3   | 20            |   |  |                     |
| 4   | 30            |   |  |                     |
| 5   | 40            |   |  |                     |
| 6   | $\beta_{lim}$ |   |  |                     |

5.1-jadval qiymatlaridan foydalanib, traktorning ko‘ndalang qiya tekislikdagi harakati uchun uning dinamik turg‘unlik tavsifni chizamiz (5.4-rasmga qarang).



5.3-rasm. G‘ildirakli traktorning (avtomobilning) dinamik turg‘unligi aniqlash sxemasi



5.4-rasm.Traktor (avtomobilning) ning ko‘ndalang turg‘unligini dinamik tavsifi

Bu yerda,  $n_n$ -dvigatelning nominal aylanishlar soni,  $\text{min}^{-1}$ ;  $r_k$ -yetakchi g‘ildirakning yumalash radiusi, m;

$i_{y,i,u}$ - transmissiyaning yuqori uzatishdagi uzatishlar soni.

Hisoblangan  $R'_{ts}$  ning qiymati grafikni ordinatasiga,  $f(\beta)$  ga olingan masshtab bo‘yicha qo‘yilib, so‘ngra  $f(\beta)$  funksiyasi chizig‘i bilan kesishguncha gorizontal chiziq o‘tkaziladi. Kesishgan nuqtaning gorizontal o‘qqa bo‘lgan proyeksiyasi  $\beta_{kr}$  burchakni beradi.

Yuqoridagi qo‘yilgan shartlardagi sharoit uchun traktor harakatlanadigan qiyalik burchagi ideal tekis yo‘l uchun  $\beta_{kr}$  dan katta bo‘lmasligi kerak.

#### 4. Qiyalikda harakatlanayotgan to‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil)ning yuqoridagi g‘ildirakning reaksiya kuchi zaxirasi bo‘yicha ko‘ndalang turg‘unligi chekli burchagini aniqlash

Harakat tekisligining profili ta’sirida harakatlanish me’yori dinamik ko‘ndalang turg‘unlik burchagi deb ataladi ( $\beta_{din}$ ). Ilmiy tadqiqotlar natijasida normal tekislikdagi dala-yo‘l sharoitida  $\beta_{din}=(0,4\dots0,6)$   $\beta_{lim}$  ligi aniqlangan, notekislik ortib borsa, dinamik burchakning miqdori 0,4  $\beta_{lim}$  dan ham kichik bo‘ladi.

Tezlikning oshishi natijasida  $\frac{\beta_{din}}{\beta_{lim}}$  burchaklar nisbati kichiklashib boradi.

Qiyalikda harakatlanayotgan traktoring ko‘ndalang turg‘unligini aniqlashda ag‘darilmasdan ishonchli harakatlanish sharti yuqorida joylashgan g‘ildirakning harakat tekisligiga normal minimal yuklanishi statik holatga nisbatan 20...40% ni tashkil etishi kerak, ya’ni  $U_{yu}=(0,2...0,4)U_{st}$ . Ko‘p traktorlarda og‘irlilik markazi bo‘ylama simmetriya o‘qida joylashgan bo‘lib, unda  $U_{st}=0,5G_t$ .  $U_{st}$  ning miqdorini yuqoridagi formulaga qo‘ysak,  $U_{yu}=(0,1...0,2) G_t$  bilan belgilanadi.

Traktoring ko‘ndalang qiyalikda dinamik turg‘unligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$u_{yu}(V + 0,5b_z) - G_t \cos\beta(0,5V + 0,5b_z) + h(R'_{ts} + G_t \sin\beta) + M_{jm} = 0, \quad (5.9)$$

bundan:

$$\frac{u_{yo}}{G_t} \geq \frac{(\cos\beta(0,5V + 0,5b_z))}{V + 0,5b_z} - \frac{h \sin\beta}{V + 0,5b_z} - \frac{R'_{ts}h}{(V + 0,5b_z)G_t} - \frac{M_{jm}}{(V + 0,5b_z)G_t} = f(\beta). \quad (5.10)$$

$f(\beta)$  qiymatini jadval ko‘rinishida aniqlaymiz:

5.2-jadval

| $\beta$ , grad. | $\frac{(\cos\beta(0,5V + 0,5b_z))}{V + 0,5b_z}$ | $\frac{h \sin\beta}{V + 0,5b_z}$ | $\frac{R'_{ts}h}{(V + 0,5b_z)G_t}$ | $\frac{M_{jm}}{(V + 0,5b_z)G_t}$ | $f(\beta)$ |
|-----------------|---|----------------------------------|------------------------------------|----------------------------------|------------|
| 0               |   |                                  |                                    |                                  |            |
| 5               |   |                                  |                                    |                                  |            |
| 10              |   |                                  |                                    |                                  |            |
| 15              |   |                                  |                                    |                                  |            |
| 20              |   |                                  |                                    |                                  |            |
| 25              |   |                                  |                                    |                                  |            |
| 30              |   |                                  |                                    |                                  |            |
| $\beta_{lim}$   |   |                                  |                                    |                                  |            |

5.2-jadval natijasida dinamik ko‘ndalang turg‘unlik grafigini chizamiz (5.5-rasm).

Grafikdan ko‘rini turibdiki (5.5-rasm),  $U_{yu}=0,1$   $G_t$  bo‘lishi talab qilinsa, traktor ko‘ndalang qiyalikda burchak  $0,27$  radian,  $U_{yu}=0,2$   $G_t$  da esa  $0,25$  radianga teng bo‘ladi. Demak tekis qiyalikda harakatlanganda g‘ildirakga ta’sir etuvchi harakat tekisligiga perpendikulyar kuchlarning o‘zgarilish amplitudasi nisbatan kichik bo‘lishi sababli  $0,27$  radianda, nisbatan notekis qiyalikdan harakatlanganda  $0,25$  radian qiyalikdan ishonchli harakatlanadi.

Demak rel’yefi notekis qiya tekislikda harakatlanganda traktorning yuqorida joylashgan g‘ildiragidagi yuklanish kattaroq bo‘lishi talab qilinadi. Qiyalikdagi notekisliklar yanada oshib ketsa, bu burchak yanada kamayadi, chunki ishonchli ag‘darilmasdan harakatlanishi uchun  $U_{yu}=0,2$   $G_t$  dan ham katta bo‘lishi talab qilinadi. Traktorning tezligi oshishi bilan ag‘darilmasdan harakatlanishi uchun  $U_{io}/G_t$  larning nisbati katta bo‘lishi talab qilinadi.

Traktorlarning ko‘ndalang turg‘unligini oshirish uchun g‘ildiraklarni mumkin qadar keng koleyaga moslashtirish va traktorni juda ehtiyyotkorlik bilan boshqarish talab qilinadi. Oddiy g‘ildirakli traktorlar uchun  $8^0$ , zanjirli traktorlar uchun esa  $12^0$  gacha bo‘lgan qiyaliklarda ko‘ndalang yo‘nalishda ish jarayonida foydalanishga ruxsat etilgan. Qiyaliklar qiymati yuqorida ko‘rsatilgan graduslardan katta bo‘lsa, unda maxsus qiyaliklarda ishlaydigan traktorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

## **5. Qiyalikda to’xtatib qo’yilgan traktor va avtomobilarning sirpanmaslik bo‘yicha shartini aniqlash**

Statik turg‘unlikda sirpanmaslik shartini aniqlash uchun tormozlangan traktorga ta’sir etuvchi barcha kuchlarni harakat tekisligiga proyeksiyalaymiz:

$$z_p + z_{yu} - G_t \sin\beta = 0 \quad \text{eki} \quad z_p + z_{yu} = G_t \sin\beta, \quad (5.12)$$

$Z_p$  va  $Z_{yu}$  reaksiyalarning maksimal qiymati qiyalikda turgan traktor shinasining ko‘ndalang yo‘nalishdagi ilashish koeffitsyenti ( $\varphi_z$ ) ga bog‘liq, ya’ni;  $(z_p + z_{yu})_{max} = \varphi_z G_t \cos\beta$ ,

Yyqoridagi ikki tenglamalarni birga echsak, unda:

$$G_t \sin\beta = \varphi_z G_t \cos\beta, \quad (5.13)$$

Sirpanmaslik sharti:  $G_t \sin \beta \leq \varphi_z G_t \cos \beta$  tengsizlik bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi tenglikdan sirpanmaslikning maksimal burchagini aniqlaymiz:  $\operatorname{tg} \beta_{\max} = \varphi_z$  yoki sirpanmaslik sharti -  $\operatorname{tg} \beta_{\max} \leq \varphi_z$  tengsizligi bilan ifodalanadi.

Demak qiya tekislikda traktor g'ildiraklarining sirpanmaslik sharti ularning shinalarini yer bilan ko'ndalang yo'nalishdagi ilashish koeffitsiyenti ( $\varphi_z$ )ga bog'liq.

G'ildirakli traktorlarda qiya tekislikda sirpanmaslik shartini albatta aniqlash lozim, zanjirli traktorlarning ilashish koeffitsiyenti yuqori bo'lganligi sababli ular limit burchakkacha ko'pincha sirpanmaydi va bu shartni aniqlash muhim emas.

Harakatdagi traktorda traktor og'irligining harakat tekisligiga parallel teng ta'sir etuvchisi ( $G_t \sin \beta$ ) dan tashqari, burilishda markazdan qochma kuchning ko'ndalang tashkil etuvchisi  $R'_{ts}$  ham ta'sir etadi:

$$z_p + z_{yu} = G_t \sin \beta + R'_{ts}, \quad (5.14)$$

## 5.2-jadval

G'ildirakli va zanjirli traktorlarning ko'ndalang yo'nalishdagi ilashish koeffitsiyenti

| T/r | Dala-yo'l sharoiti | Traktorlar  |          | Avtomobil  |
|-----|--------------------|-------------|----------|------------|
|     |                    | G'ildirakli | zanjirli |            |
| 1   | Asfal't yo'l       | 0,8...0,9   | -        | 0,6...0,75 |

|   |                      |           |           |           |
|---|----------------------|-----------|-----------|-----------|
| 2 | Tuproqli yo'l        | 0,6...0,8 | 0,9...1,0 | 0,5...0,7 |
| 3 | Quruq qattiq tuproq  | 0,7...0,9 | 1,0...1,1 | -         |
| 4 | Ang'iz               | 0,6...0,8 | 0,8...1,0 | -         |
| 5 | Haydalgan dala       | 0,5...0,7 | 0,6...0,8 | -         |
| 6 | Yangi haydalgan dala | 0,5       | 0,6       | -         |

Bunda:  $R'_{ts}$  ta'sirida shinalarning sirpanishi kichiqrok burchaklarda ham sodir bo'ladi.  $R'_{ts}$  katta bo'lganda hatto gorizontal tekislikda ham yonga sirpanish sodir bo'ladi. Yuqorida keltirilganlardan foydalanib, harakat vaqtidagi sirpanishni aniqlaymiz:

$$G_t \sin \beta = \varphi_z G_t \cos \beta + R'_{ts},$$

bundan sirpanmaslikning maksimal burchagini aniqlaymiz:  $t g \beta_{max} = \varphi_z + \frac{R'_{ts}}{G_t}$  ëki sirpanmaslik sharti  $-t g \beta_{max} \leq \varphi_z + \frac{R'_{ts}}{G_t}$  tengsizligi bilan ifodalanadi.

Traktor va avtomobillar uchun shinasini ko‘ndalang yo‘nalishdagi ilashish koeffitsyenti ( $\varphi_z$ ) 5.2-jadvalda keltirilgan.

### **Hisobot tayyorlash**

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

2. To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang qiya tekislikda yuqoriga qarab tekis harakatida statik turg‘unligi burchagi -  $\beta_{lim}$  ni, dinamik turg‘unligi burchagi  $\beta_{kr}$  va sirpanmaslik maksimal burchagi  $\beta_{max}$  ni yozib oling va 5.3-jadvalga kiriting.

3. To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning statik va dinamik turg‘unlik burchaklarini aniqlash bo‘yicha bajarilgan hisoblash natijalarini tahlil qiling.

4. To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning tepaga yoki pastga qarab yurishida yo‘lda va dalada harakatlanganda chegaraviy va kritik burchaklardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bering.

### **5.3-jadval**

To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning statik va dinamik turg‘unligi asosiy ko‘rsatkichlari (hisoblash natijalari asosida)

| To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning rusumi va nomi | Ko‘ndalang chegaraviy burchagi, $\beta_{lim}$ | Ko‘ndalang tekislikdagi kritik burchagi, $\beta_{kr}$ | Ko‘ndalang tekislikdagi sirpanish burchagi, $\beta_{max}$ |
|--|---|---|---|
| Hisoblashlar natijasida aniqlangan parametrlar<br>qiymatlari         |   |   |   |
|  |   |   |   |

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrlarga ega bo‘lgan variantlarda bajaring (5.4-jadval).

Xulosa: \_\_\_\_\_

(bajarilgan ish bo‘yicha talaba tomonidan to‘ldiriladi)

|  |                     |   |
|--|---------------------|---|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |                     | «Traktor va avtomobillar nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o‘quv yili                            |
| Bajardi:   | Guruh:              | To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish |
| Qabul qildi:   | 5-amaliy mashg‘ulot |   |

Ilova  
5.4-jadval

To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) larning ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash uchun kerakli ma’lumotlar (variantlar)

| T/r | Traktor va avtomobil rusumi | Traktor va avtomobil og‘irlik markazi koordinatalari, mm |      | Bo‘ylama baza L, mm | Tirkama balandligi - $h_{kr}$ |
|-----|-----------------------------|--|------|---------------------|-------------------------------|
|     |                             | “a”  | “h”  |                     |                               |
| 1   | T-16M                       | 454  | 795  | 250                 | 500                           |
| 2   | TTZ-60.10                   | 662  | 1020 | 2177                | 500                           |

5.4-jadval davomi

|    |           |      |      |      |           |
|----|-----------|------|------|------|-----------|
| 3  | TTZ-60.11 | 770  | 1050 | 2250 | 500       |
| 4  | MTZ-80    | 875  | 900  | 2370 | 396...404 |
| 5  | MTZ-80X   | 705  | 1065 | 2470 | 396...404 |
| 6  | T-150K    | 1820 | 966  | 2860 | 369       |
| 7  | T-150     | 1120 | 773  | 2870 | 360       |
| 8  | VT-100    | 1215 | 700  | 2546 | 330       |
| 9  | VT-150    | 1275 | 712  | 2546 | 330       |
| 10 | GAZ-53A   | 1750 | 820  | 3700 | 565       |
| 11 | GAZ-52    | 1340 | 830  | 3700 | 560       |
| 12 | GAZ-66    | 2030 | 820  | 3300 | 570       |
| 13 | ZIL-130   | 1800 | 800  | 3800 | 540       |

5.5-jadval

G‘ildirakli va zanjirli traktor hamda avtomobil uchun ilashish koeffitsiyenti qiymatlari

| Yo‘l turi<br>(tuproq usti) | Traktorlar  |           | Avtomobil  |
|----------------------------|-------------|-----------|------------|
|                            | G‘ildirakli | Zanjirli  |            |
| Asfalt yo‘l                | 0,8...0,9   | -         | 0,6...0,75 |
| Gruntli quriq, tuproq      | 0,6...0,8   | 0,9...1,0 | 0,5...0,7  |
| Qo‘riq, zich qatlam        | 0,7...0,9   | 1,0...1,1 | -          |

|                   |           |           |   |
|-------------------|-----------|-----------|---|
| Ang‘iz            | 0,6...0,8 | 0,8...1,0 | - |
| Shudgorlangan yer | 0,5...0,7 | 0,6...0,8 | - |
| Eski shudgor      | 0,5       | 0,6       | - |

## Nazorat savollari

1. Traktorning “ko‘ndalang turg‘unligi” tushunchasi nimani bildiradi?
2. Traktor (avtomobil) ning “ko‘ndalang turg‘unlik tavsifi” atamasi nimani bildiradi?
3. "Ko‘ndalang turg‘unlik chegarasi" atamasi nimani anglatadi va u qanday aniqlanadi?
4. Traktor (avtomobil) ning ko‘ndalang turg‘unligi qanday aniqlanadi?

## 6-AMALIY MASHG‘ULOT UCH G‘ILDIRAKLI CHOPIQ TRAKTORI KO‘NDALANG TURG‘UNLIGINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

**Ish maqsadi.** Kompyuterda uch g‘ildirakli chopiq traktori ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash, tahlil qilish uslubi bilan tanishish va ko‘ndalang turg‘unlik tavsifini qurish.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

### Ish mazmuni

Amaliy ishlarni bajarish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Uch g‘ildirakli traktorning turg‘unlik mezoni.
2. Uch g‘ildirakli traktor ko‘ndalang tekislikdagi statik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.
3. Uch g‘ildirakli traktor ko‘ndalang tekislikdagi dinamik turg‘unligi chekli burchagini aniqlash.
4. Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha xulosa yozish.

## Ishni bajarish uslubiyoti


### 1.Uch g‘ildirakli traktorning turg‘unlik mezoni

Paxta qator oralarida ishlov beruvchi traktorlar yurish qismining sxemasi 3K2 bo‘lib, bu burilish radiusini kamaytirish hamda burilish maydonida o‘simliklarni payhon qilishini kamaytirish maqsadida oldingi o‘qqa bitta g‘ildirak o‘rnataladi. O‘simlik ustidan o‘tuvchanlikni yaxshilash maqsadida traktorning klirensi (yo‘l tirqishi) oshirilgan va natijada og‘irlilik markazining vertikal koordinatasi yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari traktorning ag‘darilish chizig‘i AB holatda og‘irlilik markazining proyeksiyasiga yaqinroq joylashgan bo‘lganligi sababli (6.1-rasm), to‘rt g‘ildirakli traktornikiga nisbatan kichikroq qiyalikda ham ag‘darilish sodir bo‘ladi. Demak uch g‘ildirakli traktorning ko‘ndalang turg‘unligi to‘rt g‘ildiraklinikidan yomonroq.

Uch g‘ildirakli traktorning ag‘darilmaslik sharti xuddi to‘rt g‘ildirakli kabi, yuqorida joylashgan g‘ildirakning normal reaksiyasi (6.2-rasm) bilan belgilanadi, ya’ni  $Y_{yu} \geq 0$ . Maksimal limit burchakda  $U_{yu}=0$ .

$Y_{yu}$  reaksiya kuchini ag‘darilish o‘qi bo‘lgan AB chizig‘i atrofida momentlar tenglamasi yordamida aniqlaymiz. Uch g‘ildirakli traktorning qiyalikdan yuqoriga tomon burilish sxemasini (6.2-rasm) ko‘rib chiqamiz. Sxemada traktorning og‘irligini teng ta’sir etuvchi ( $G_t \cos \beta$ ,  $G_t \sin \beta$ ) laridan tashqari, markazdan qochma kuchning ko‘ndalang teng ta’sir



6.1-rasm. Uch g‘ildirakli traktorning ag‘darilish chizig‘ini aniqlash sxemasi

etuvchisi ( $R'_{ts}$ ), hamda dvigatelning aylanuvchi qismlarining urinma inersiya moment ( $M_j$ ) lari ta’sir etadi.  $M_j$  ni to‘rt g‘ildirakli traktor ko‘ndalang turg‘unligidagidek aniqlanadi.


$$Y_{yu}(KT) = G_t \cos\beta(SD) - (G_t \sin\beta + R'_{ts})h - M_{jm},$$

bundan:

$$Y_{yu} = \frac{G_t \cos\beta(SD) - (G_t \sin\beta + R'_{ts})h - M_{jm}}{KT} \geq 0, \quad (6.1)$$

Bu tenglamani yechish uchun (KT) va (SD) masofalarni aniqlash kerak.

$$(KT) = (V + 0,25b_2)\cos\gamma.$$



6.2-rasm. Uch g'ildirakli traktorning ko'ndalang dinamik turg'unligini sxemasi

$$(CD) = ((L - a) + 0,25b_1 \operatorname{ctg} \gamma) \sin \gamma,$$

yoki:

$$(CD) = ((L - a) \sin \gamma + 0,25b_1 \cos \gamma),$$

(KT) va (SD) larning qiymatlarini yuqoridagi tenglamaga qo'ysak:

$$Y_{yu} = \frac{(G_t \cos \beta)((L-a) \sin \gamma + 0,25b_1 \cos \gamma) - (G_t \sin \beta + R'_{ts})h - M_{jm}}{(V + 0,25b_2) \cos \gamma} \geq 0, \quad (6.2)$$

$\gamma$  - burchagini rasm 6.1-rasmdan aniqlaymiz:

$$\operatorname{tg} \gamma = \frac{0,25b_2 - 0,25b_1}{L},$$

Sxemadan ko'rinish turibdiki, (SD) masofa to'rt g'ildirakli traktornikidan kichik, shu sababli nisbatan uch g'ildirakli traktorning ko'ndalang turg'unligi to'rt g'ildiraklinikidan yomonroq bo'ladi.

## **2.Traktoring statik ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash**

Traktoring statik holatida  $R'_{ts}$  va  $M_{jm}$  larning miqdori nolga teng, unda:

$$Y_{yu} = \frac{(G_t \cos \beta)((L-a) \sin \gamma + 0,25 b_1 \cos \gamma) - G_t \sin \beta h}{(V+0,25 b_2) \cos \gamma} \geq 0. \quad (6.3)$$

Ag‘darilmaslik sharti bo‘yicha burchak  $\beta=\beta_{lim}$  teng bo‘lsa,  $U_{yu}=0$  ligini inobatga olib:

$$(G_t \cos \beta)((L-a) \sin \gamma + 0,25 b_1 \cos \gamma) - G_t \sin \beta h \geq 0,$$

bundan maksimal statik limit burchak  $\beta_{lim}$  ni aniqlaymiz:

$$\operatorname{tg} \beta_{lim} = \frac{((L-a) \sin \gamma + 0,25 b_1 \cos \gamma)}{h} = \frac{CD}{h}, \quad (6.4)$$

Maksimal limit burchakda traktoring sxemasini masshtabda chizib, undan (CD) masofani aniqlab, analitik usulda aniqlangan bilan solishtiring, ular teng bo‘lishi shart.

Masshtabda chizilgan traktoring sxemasidan ko‘rinib turibdiki, og‘irlik markazidan o‘tkazilgan vertikal tayanch yuzani (SD) masofada kesib o‘tadi. To‘rt g‘ildirakli traktorda esa bu vertikal orqa va oldingi ballonlarning ag‘darilish nuqtalarini birlashtiruvchi chiziqdan o‘tar edi.

Demak, og‘irlik markazining balandligi bir xil bo‘lganda ag‘daruvchi moment o‘zgarmagan holda barqarorlovchi moment uch g‘ildirakli traktorda o‘zgaradi. To‘rt g‘ildirakli traktoring barqarorlovchi momenti uch g‘ildiraklinikidan yaxshiroq bo‘ladi, ya’ni bir xil sharoitda  $(V + 0,25 b_{sh}) \geq (SD)$ . Bundan kelib chiqqan holda uch g‘ildirakli traktoring ko‘ndalang turg‘unligi to‘rt g‘ildiraklinikidan émonroq bo‘ladi.

## **3.Uch g‘ildirakli traktoring dinamik ko‘ndalang turg‘unligi**

Uch g‘ildirakli traktor qiyalikka ko‘ndalang yo‘nalishda yuqoriga burilgandagi turg‘unligini aniqlash uchun barcha ta’sir etuvchi kuchlarning ag‘darilish nuqtasiga nisbatan moment tenglasmasini tuzamiz:

$$Y_{yu} = \frac{(G_t \cos \beta)((L-a) \sin \gamma + 0,25 b_1 \cos \gamma) - (G_t \sin \beta + R'_{ts})h - M_{jm}}{(V - 0,25 b_2) \cos \gamma} \geq 0. \quad (6.5)$$

maksimal kritik burchakda  $U_{yu} = 0$ , unda;

$$R'_{ts} \geq \frac{(G_t \cos \beta)((L-a) \sin \gamma + 0,25 b_1 \cos \gamma) - (G_t \sin \beta h - M_{jm})}{h} = f(\beta), \quad (6.6)$$


Tenglamaning  $(G_t \cos \beta)((L-a) \sin \gamma + 0,25 b_1 \cos \gamma)$  qismi traktorning turg‘unligini oshiruvchi,  $(G_t \sin \beta - M_{jm})h$  qismi esa ag‘daruvchi momentlarni beradi. Bu tenglamalarning hadlarini o‘zgartirib, traktorning turg‘unligini oshirish mumkin.

Bu tenglamaning har xil burchaklar bo‘yicha yechimi uch g‘ildirakli traktorning ko‘ndalang turg‘unligining dinamik tavsifini beradi.

$\beta$  - burchakka 0 dan  $\beta_{\lim}$  gacha har 10 gradusdan burchaklar kiymatini o‘zgartirib  $f(\beta)$  funksiyasi qiymatini aniqlab 6.1-jadvalga kiritamiz. So’ngra uch g‘ildirakli traktorning ko‘ndalang qiya tekisligidagi dinamik turg‘unligi tavsifini chizamiz (6.3-rasm).

6.1-jadval

| $\beta$ , grad. | $\frac{(G_t \cos \beta)((L-a) \sin \gamma + 0,25 b_1 \cos \gamma)}{h}$ , kN | $\frac{(G_t \sin \beta h - M_{jm})}{h}$ , kN. | $f(\beta)$ , kN |
|-----------------|---|---|-----------------|
| 0               |   |   |                 |
| 10              |   |   |                 |
| 20              |   |   |                 |
| 30              |   |   |                 |
| 40              |   |   |                 |
| $\beta_{\lim}$  |   |   |                 |



6.3-rasm. Uch g'ildirakli traktorning dinamik ko'ndalang turg'unlik tavsifi

Maksimal kritik ( $\beta$ , kr) burchakni aniqlash uchun ko'ndalang qiya tekislikda traktorning ishchi uzatmadagi maksimal tezligi  $V_{max}$  va tepalikka burilgandagi minimal burilish radius ( $R_{b,min}$ ) larini qabul qilamiz.

Markazdan qochma kuchning ko'ndalang teng ta'sir etuvchisini quyidagi formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$R'_{ts} = G_t \frac{v_{max}^2}{R_{b,min}}$$

Ishchi uzatmadagi maksimal tezlikni esa:

$$V_{max} = 0,377 \frac{n_n r_k}{i_i} , \text{ m/s.}$$

$n_n$ -dvigatel tirsakli valining nominal aylanishlar soni,  $\text{min}^{-1}$ ;

$r_k$ - yetakchi g'ildirakning ymalash radiusi, m;

$i_i$ -traktor transmissiyasi uzatishining yuqori ishchi tezlikdagi uzatmalar soni.

Hisoblangan  $R'_{ts}$  ning qiymatini vertikal o'qqa qo'yib, so'ngra  $f(\beta)$  funksiyasi grafigi bilan uchrashguncha gorizontal chizig'ini o'tkazamiz. Bu chiziqning grafik bilan uchrashgan nuqtasining gorizontal o'qqa proyektsiyasi maksimal kritik  $\beta_{kr}$  burchagini beradi.

Uch g'ildirakli traktorning sirpanmaslik shartini aniqlash uslubi to'rt g'ildiraklinidan farq qilmaydi.

## Hisobot tayyorlash

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

2. Uch g‘ildirakli traktorning ko‘ndalang qiya tekislikda yuqoriga qarab tekis harakatida statik turg‘unligi burchagi -  $\beta_{lim}$  ni, dinamik turg‘unligi burchagi  $\beta_{kr}$  va sirpanmaslik maksimal burchagi  $\beta_{max}$  ni yozib oling va 6.2-jadvalga kriting.

3. Uch g‘ildirakli traktorning statik va dinamik turg‘unlik burchaklarini aniqlash bo‘yicha bajarilgan hisoblash natijalarini tahlil qiling.

4. Uch g‘ildirakli traktorning tepaga yoki pastga qarab yurishida yo‘llarda va dala sharoitida harakatlanganda chegaraviy va kritik burchaklardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bering.

6.2-jadval

Uch g‘ildirakli traktorning statik va dinamik turg‘unligi asosiy  
ko‘rsatkichlari (hisoblash natijalari asosida)

| Uch g‘ildirakli traktorning rusumi va nomi | Ko‘ndalang chegaraviy burchagi, $\beta_{lim}$                | Ko‘ndalang tekislikdagi kritik burchagi, $\beta_{lim}$ | Ko‘ndalang tekislikdagi sirpanish burchagi, $\beta_{max}$ |
|--|--|--|---|
|  | Hisoblashlar natijasida aniqlangan parametrlar<br>qiymatlari |  |   |
|  |  |  |   |
|  |  |  |   |

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrlarga ega bo‘lgan variantlarda bajaring (6.4-jadval).

6. Xulosa.

(bajarilgan ish bo‘yicha talaba tomonidan to‘ldiriladi)

|  |                        |  |
|--|------------------------|--|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |                        | «Traktor va avtomobillar nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o‘quv yili         |
| Bajardi:   | Guruhi:                |  |
|  |                        |  |
| Qabul qildi:   | 6-amaliy<br>mashg‘ulot | Uch g‘ildirakli traktor<br>ko‘ndalang turg‘unligini<br>aniqlash va tahlil qilish |
|  |                        |  |

Ilova  
6.3-jadval

Uch g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) larning ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash uchun kerakli ma’lumotlar (variantlar).

| Traktor rusumi | Traktor og‘irlik markazi koordinatalari, mm |      | Bo‘ylama baza L, mm | Tirkama balandligi - $h_{kr}$ |
|----------------|---|------|---------------------|-------------------------------|
|                | “a”   | “h”  |                     |                               |
| TTZ-60.11      | 770   | 1050 | 2250                | 400                           |
| TTZ-80.11      | 770   | 1050 | 2400                | 500                           |
| MTZ-80X        | 705   | 1065 | 2470                | 396...404                     |

6.4-jadval

G‘ildirakli va zanjirli traktor hamda avtomobil uchun ilashish koeffitsiyenti qiymatlari

| Yo‘l turi (tuproq usti) | Traktorlar  |           | Avtomobi l |
|-------------------------|-------------|-----------|------------|
|                         | G‘ildirakli | Zanjirli  |            |
| Asfalt yo‘l             | 0,8...0,9   | -         | 0,6...0,75 |
| Gruntli quriq tuproq    | 0,6...0,8   | 0,9...1,0 | 0,5...0,7  |
| Qo‘riq, zich qatlam     | 0,7...0,9   | 1,0...1,1 | -          |
| Ang‘iz                  | 0,6...0,8   | 0,8...1,0 | -          |
| Shudgorlangan yer       | 0,5...0,7   | 0,6...0,8 | -          |
| Eski shudgor            | 0,5         | 0,6       | -          |

### Nazorat savollari

1. Uch g‘ildirakli traktorning “ko‘ndalang turg‘unlik” tushunchasi nimani bildiradi?
2. Uch g‘ildirakli traktorning “ko‘ndalang turg‘unlik tavsifi” atamasi nimani bildiradi?
3. "Ko‘ndalang turg‘unlik chegarasi" atamasi nimani anglatadi va u qanday aniqlanadi?
4. Uch g‘ildirakli traktorning ko‘ndalang turg‘unligi qanday aniqlanadi?

## **7-AMALIY MASHG‘ULOT**

### **ZANJIRLI TRAKTOR YURITGICHINING TUPROQQA BOSIM DIAGRAMMASINI QURISH VA TAHLIL QILISH**

**Ish maqsadi.** Kompyuterda zanjirli traktor yuritgichining tuproqqa bosim diagrammasini qurish va uni tahlil qilish uslubi bilan tanishish.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

#### **Ish mazmuni**

1. Zanjirli traktorga ta’sir etuvchi kuchlar diagrammasini tuzish.
2. Bosim markazining ko‘chishini tuproqdagi solishtirma bosimga ta’sirini quyidagi holatlar uchun o‘rganish:

- a )  $\alpha=0^0$ ,  $P_{il}=0$ .
- b )  $\alpha=0^0$ ,  $P_{il}=0,5P_n$ .
- d )  $\alpha=0^0$ ,  $P_{il}=P_n$ .
- e )  $\alpha=5^0$ ,  $P_{il}=P_n$ .
- f )  $\alpha=8^0$ ,  $P_{il}=P_n$ .

3. Olingan epyuralar asosida traktoring tortish-ilashish xususiyatlarini tahlil qilish.

4. Hisobotni tayyorlash.

#### **Ishni bajarish uslubiyoti**

##### **1.Zanjirli traktorga ta’sir etuvchi kuchlar sxemasini qurish**

Zanjirli traktoring gorizontal yuzaga nisbatan  $\alpha$  burchak bilan to‘g‘ri chiziqli tezlanish bilan ko‘tarilishga harakat qilayotgan umumiyl holatni ko‘rib chiqamiz. Bunday holda tirkamali zanjirli traktorga bo‘ylama-vertikal tekislikda quyidagi tashqi kuchlar va reaksiya kuchlari ta’sir qiladi (7.1-rasm):

1. Traktor og‘irlik kuchi  $G$ , uning tarkibiy qismlari  $G_{sin\alpha}$  va  $G_{cos\alpha}$ .  $G_{cosa}$  mos ravishda harakat yo‘nalishiga parallel va perpendikulyar yo‘naltirilgan.

2. Traktor massasining ilgarilama harakatidan hosil bo‘luvchi inersiya kuchi  $P_j$ .


3. Traktor tirkamasi shartli nuqtasiga qo‘yilgan tortish qarshilik kuchi  $R_{kr}$  va uning gorizontal tuzuvchilari:  $P_{kr} \cos \gamma_{kr}$  va  $P_{kp} \sin \gamma_{kr}$ .

4. Traktorga tuproqning qarshilik kuchlari:

-urinma tortish kuchi  $P_k$ ;

-harakatga qarshilik kuchi  $P_{fp}$ ;

5. Y– traktor harakat yo‘nalishiga normal yo‘naltirilgan reaksiya kuchi–bu traktoring harakati davomida uning har bir zanjiri elementlariga ta’sir etuvchi tuproq (yo‘l) ning normal reaksiya kuchlari yig‘indisi.



7.1-rasm. Zanjirli traktor tepaga qarab harakatlanayotganda unga bo‘ylama tekislikda ta’sir qiluvchi kuch va reaksiyalar sxemasi

Havoning qarshiligi kuchi- $P_w$ , traktor ko‘ndalang vallariga o‘rnatilgan dvigatel va transmissiyasi aylanuvchi qismlari tangensial inersiya kuchlari momentlari, shuningdek yuritgich zanjirlarining harakatlanuvchi bo‘g‘inlari qarshiliklari e’tiborga olinmaydi.

Tuproqning zanjirli yurish qismiga ta’sir etuvchi natijaviy reaksiya kuchi  $Y$  qo‘yilgan nuqtani bosim markazi deb ataymiz va D nuqta bilan belgilaymiz.

Umumiy holda bosim markazi zanjirli yurish qismi tayanch yuzasi o‘rtasi bilan mos kelmaydi. Belgilangan o‘rta nuqtadan bosim markazigacha bo‘lgan bo‘ylama masofa  $xd$  bosim markazining ko‘chishi deyiladi.

Bosim markazi ko'chish XD ni o'rnatish uchun traktorga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar va reaksiyalarning momentlari tenglamasini bosim markazi D ga nisbatan yozamiz:

$$G \cos a (x_D + a_0) - (G \sin a + P_f) \cdot h_{\text{tst}} - P_{\text{kr}} \cos \gamma_{\text{kp}} \cdot h_{\text{kr}} - P_f \cdot h_p - P_{\text{kr}} \cdot \sin \gamma_{\text{kp}} (a - a_0 - xD) = 0. \quad (7.1)$$

Bu yerda  $a$  — traktor yetakchi g'ildiragi geometrik o'qidan uning og'irlik markazigacha bo'lgan masofa;

$a_0$  — traktor zanjirli yurish qism tayanch uzunligi o'rtasidan og'irlik markazigacha bo'lgan masofa;

$a_0 > 0$  — agar traktor og'irlik markazi oldinga siljigan bo'lsa;

$a_0 < 0$  — agar og'irlik markazi orqaga siljigan bo'lsa.

$h_{\text{tst}}$  va  $h_{\text{kr}}$  — traktorning og'irlik markazining vertikal koordinatalari va tirkamaning (ilgak) shartli nuqtasi;

$h_p$  — bu dumalashga qarshilik kuchi  $P_{f_n}$  komponentining yelkasi.

Ko'paytma:

$P_f h_n = M_f$  — zanjirli traktorning yurishga qarshilik momenti (tuproqning ezilishi hisobiga yuz beradi).

Yuqorida keltirilgan tenglamadan gusenitsa tayanch yuzasi o'rtasiga nisbatan bosim markazining siljishini topamiz:

$$X_D = \frac{(G \sin \alpha - P_f) \cdot h_{ym} + P_{kp} \cdot (h_{kp} \cdot \cos \gamma_{kp} + a \cdot \sin \gamma_{kp}) + M_f - a_0}{\cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma_{kp}}, \left[ \frac{m}{mm} \right] \quad (7.2)$$

Traktor gorizontal uchastkada bir tekis harakatlanganda:

Agar  $\gamma_{kp}=0$  bo'lsa, bunda ilgakdagi kuch zanjir gusenitsasini normal kuch bilan yuklay olmaydi, buning natijasida kuch ta'siri bosim markazini siljishga olib keladi xolos.

$$X_D = (P_{\text{kr}} \cdot h_{\text{kr}} + M_f) / G - a_0. \quad (7.3)$$

## 2. Tuproqqa ta'sir etadigan solishtirma bosimni aniqlash

Tuproqqa ta'sir etadigan solishtirma bosimni ikki usul bilan topiladi: o'rtacha va maksimal qiymati bo'yicha.

O'rtacha bosim qiymatini topishda traktor og'irligi gusenitsa tayanch yuzasi bo'y lab bir tekis taqsimlangan deb qabul qilinadi.

Tuproqqa ta'sir etadigan solishtirma bosimning haqiqiy qiymati o'rtacha qiymatdan ancha farqlanadi va uning qiymati asosan ilgakdagi tortish kuchiga bog'liq bo'ladi.

Amaliyot uchun maksimal solishtirma bosim ahamiyati katta hisoblanadi. Tuproqqa beriladigan maksimal solishtirma bosim epyurasini qurishda zanjir (gusenisa) tayanch yuzasiga ta'sir etadigan solishtirma bosim traktor osmasining turiga bog'liq bo'lman holda chiziqli shaklda deb qabul qilinadi.

Hisob ishlari quyidagi tartibda bajariladi:

1. Bosim markazining ko'chishini (siljishini) quyidagi formulalar yordamida hisoblaymiz:

$$\Delta X = l - X_d = \frac{G \cdot \sin \alpha h + P_{kp} (h_{kp} \cdot \cos \gamma + l \cdot \sin \gamma) + X_h \cdot h_h}{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}. \quad (7.4)$$

A qiymatini hisoblaymiz:

$$A = 1 - S - \Delta X, \quad (7.5)$$

bu yerda  $S$  – yetakchi g'ildirakdan unga yaqin bo'lgan birinchi tayanch g'ildirakkacha bo'lgan masofa.

2. Solishtirma bosimni aniqlaymiz:


a) agar  $A = \frac{L}{2}$  bo'lsa, bunda bosim epyurasi to'g'ri to'rtburchak shakliga ega bo'ladi va o'rtacha qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

b) agar  $\frac{L}{3} < A < \frac{L}{2}$  bo'lsa, bunda bosim epyurasi trapedtsiya shakliga ega bo'ladi va uning maksimal qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_{\max} = \frac{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}{BL} \left( 2 - \frac{3A}{L} \right), \quad (7.6)$$

va minimal qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_{\min} = \frac{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}{BL} \left( \frac{3A}{L} - 1 \right), \quad (7.7)$$



7.2-rasm. Zanjirli traktorga ta'sir etuvchi kuchlar: L-zanjirli gusenitsa tayanch tarmog'i, s – yetakchi g'ildirak geometrik o'qidan zanjirli gusenitsa tayanch tarmog'igacha masofa, l – og'irlik markazining bo'ylama koordinatasi;  $h_{kr}$  – ilgak balandligi

d) agar  $\frac{L}{3} < A < \frac{L}{2}$  bo'lsa, bunda bosim epyurasi trapedtsiya shakliga ega bo'ladi va uning maksimal qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_{\max} = \frac{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}{BL} \left( 2 - \frac{3A}{L} \right), \quad (7.7)$$

va minimal qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_{\min} = \frac{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}{BL} \left( \frac{3A}{L} - 1 \right), \quad (7.8)$$

$$q_{cp} = \frac{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}{2BL}, \quad (7.9)$$

e) agar  $A = \frac{L}{2}$  bo'lsa, bunda bosim epyurasi uchburchak shakliga ega bo'ladi va uning maksimal qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_{cp} = \frac{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}{2BL}, \quad (7.10)$$

f) agar  $A < \frac{L}{2}$  bo'lsa, bosim epiorasi qisqartirilgan  $L=3A$  uzunlikdagi uchburchak shakliga ega bo'ladi va uning maksimal qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_{\max} = \frac{G \cdot \cos \alpha + P_{kp} \cdot \sin \gamma}{3BA},$$

(7.10)

Hisob natijalarini 7.1-jadvalga kiritamiz.

### Hisobot tayyorlash

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo'yicha o'rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

2. Zanjirli traktorning tuproqqa bosimi diagrammalarini qurish bo'yicha hisob-kitoblar natijalarini jadvalga yozing 7.1.

7.1-jadval

Zanjirli traktorning tuproqqa bosimi diagrammalarini qurish bo'yicha hisob-kitoblar natijalari

| Traktor rusumi va nomi | $\alpha$ , grad. | L/3             |            | A | $q_{\max}$ | $q_{\min}$ |
|------------------------|------------------|-----------------|------------|---|------------|------------|
|                        |                  | $R_{kr}$        | $\Delta X$ |   |            |            |
|                        | $\alpha=0^\circ$ | $R_{kr}=0$      |            |   |            |            |
|                        |                  | $R_{kr}=0,5R_n$ |            |   |            |            |
|                        |                  | $R_{kr}=R_n$    |            |   |            |            |
|                        | $\alpha=5^\circ$ | $R_{kr}=0$      |            |   |            |            |
|                        |                  | $R_{kr}=0,5R_n$ |            |   |            |            |
|                        |                  | $R_{kr}=R_n$    |            |   |            |            |

|                  |                 |  |  |  |  |
|------------------|-----------------|--|--|--|--|
| $\alpha=8^\circ$ | $R_{kr}=0$      |  |  |  |  |
|                  | $R_{kr}=0,5R_n$ |  |  |  |  |
|                  | $R_{kr}=R_n$    |  |  |  |  |

3. Hisoblangan va qurilgan epioralarga muvofiq traktoring tortish-ilashish xususiyatlarini tahlil qiling.

4. Traktordan turli tuproqlarda va qishloq xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan yer maydonlarda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish.

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrlarga ega variantlar ustida bajaraning (7.2-jadval).

6.Xulosa:

(bajarilgan ish bo‘yicha talaba tomonidan to‘ldiriladi)

|  |                     |  |
|--|---------------------|--|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |                     | «Traktor va avtomobillar nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o‘quv yili                       |
| Bajardi:   | Guruh:              | Zanjirli traktor<br>yuritgichining tuproqqa<br>bosimi diagrammasini qurish<br>va tahlil qilish |
| Qabul qildi:   | 7-amaliy mashg‘ulot |  |

Ilova  
7.2-jadval

Zanjirli traktor yuritkichining tuproqqa bosim diagrammasini qurish va tahlil qilish uchun ma’lumotlar (variantlar)

| T/r | Traktor rusumi    | Traktor og‘irlilik markazi koordinatalar, m |      | $S_k$ , m | $a$ , m | L, m | $h_{kr}$ , m | $r_k$ , m | $X_k$ , m |
|-----|-------------------|---|------|-----------|---------|------|--------------|-----------|-----------|
|     |                   | $l$   | $h$  |           |         |      |              |           |           |
| 1   | VT-100            | 1,2<br>1                                    | 0,7  | -         | 0,18    | 2,2  | 0,33         | 0,355     | 0,12      |
| 2   | VT-150            | 1,2<br>3                                    | 0,71 | -         | 0,25    | 2,4  | 0,33         | 0,355     | 0,14      |
| 3   | T-4AM<br>“Altrak” | 1,1<br>6                                    | 0,71 | 0         | 0,30    | 2,6  | 0,385        | 0,424     | 0,16      |
| 4   | T-150             | 1,1<br>2                                    | 0,77 | -         | 0,20    | 2,24 | 0,36         | 0,379     | 0,12      |

L-gusenitsali zanjir tayanch tarmog‘i, m; c-yetaklanuvchi g‘ildirak aylanish markazidan va gusenitsa tarmog‘; i - yerga (tuproqqa) tegib turgan qismigacha bo‘lgan masofa, m; l – traktor og‘irlik markazi bo‘ylama koordinatasi, m;  $h_{kr}$  -traktorning ilgaki balandligi;  $H_k$ -traktor yurganda grunt (tuproq) deformatsiyasi, m.

### Nazorat savollari

1. Tuproqning solishtirma bosimini aniqlash usullari qaysi turlarga bo‘linadi?
2. Zanjirli traktor yurish qismi solishtirma bosimi nima maqsadda bajariladi?
3. Traktor ilgakidagi tortish kuchining (qarshiligi) o‘zgarishi bilan tuproqdagi solishtirma bosim qanday o‘zgaradi?
4. Gusenitsali zanjir yerga (tuproqqa) tegib turgan qismida solishtirma bosim qanday o‘zgaradi?
5. Zanjirli traktor tirkamali va osma o‘rnatilgan mashinalar bilan ishlaganda unga ta’sir etuvchi kuch va momentlar qanday o‘zgaradi?
6. Zanjirli traktoring "bosim markazi" atamasi nimani anglatadi?
7. Zanjirli traktor tirkamali va osma mashinalar bilan harakatlanganda gusenitsa zanjirining solishtirma bosimi qanday o‘zgaradi?
8. Bosim markazining holatini tartibga solishning qanday usullarini bilasiz?

### 8-AMALIY MASHG‘ULOT ZANJIRLI TRAKTOR BURILISH TAVSIFINI QURISH VA TAHLIL QILISH

**Ish maqsadi.** Kompyuyuterda zanjirli traktor burilish tavsifini qurish usuli bilan tanishish va uni tahlil qili.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg‘ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo‘ljallangan. Kompyuter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

## Ish mazmuni

1. Traktor burilishida unga ta'sir etuvchi kuchlar va momentlar tarkibiy qismlari.
2. Traktorning ikki o'qli g'ildirakli tirkama bilan burilish sxemasini qurish.
3. Traktorning ikki o'qli tirkama bilan burilish tavsifini qurish va uni tahlil qilish.

## Ishni bajarish uslubiyoti

### 1. Burilishda traktorga ta'sir etuvchi kuch va momentlarni aniqlash

Zanjirli traktorning to'g'ri chiziqli harakatining umumiyligi holatini u gorizontga nisbatan  $\alpha$  qiyalik burchagida tezkorlik bilan yuqoriga qarab harakatlangan holatini ko'rib chiqamiz. Bunda bo'ylama-vertikal tekislikda tirkamali traktor harakatlanganda unga quyidagi tashqi kuchlar va reaksiyalar ta'sir qiladi (8.1-rasm).

Traktorga quyidagi kuchlar ta'sir etadi:

$P_{kr}$  - traktor harakat yo'nalishiga qarshi  $\gamma$  burchak bilan qo'yilgan va uning ilgakiga qo'yilgan tortish qarshiligi, N;

$P_{k1}$  - sekinlashayotgan zanjir urinma tortish kuchi, N;

$P_{k2}$  - tezlashayotgan zanjir urinma tortish kuchi, N;

$P_{f1}$  - sekinlashayotgan zanjirdagi dumalash qarshiligi kuchi, N;

$P_{f2}$  - tezlashayotgan zanjirdagi dumalash qarshiligi kuchi, N;

$M_r$  - tirkamasiz traktorga ta'sir etuvchi burilish qarshilik momenti, Nm.

Eng qulay ish sharoitida  $P_{f1}$  va  $P_{f2}$  kuchlari taxminan tengdir va hisob-kitoblarining ishonchliligi uchun quyidagilarni qabul qilishimiz mumkin:

$$M_{pes} = \mu \frac{\bar{G} \cdot \bar{L}_{cyc}}{4} + P_{kp} \cdot l_{kp} \cdot \sin \gamma, \quad (8.1)$$

bu yerda  $\mu$ - burilishga keltirilgan qarshilik koeffitsient.


$$\mu = \frac{\mu_{\max}}{a + (1-a) \cdot (\rho + 0,5)}, \quad (8.2)$$

bu yerda  $G = mg$  – traktor og‘irligi;  $f_p$  – traktor burilishidagi dumalash qarshilik koeffitsiyenti:

$$P_p = R_{f2} = 0,5f_pG. \quad (8.3)$$

$$f_n = f \left( 1 + \frac{15}{15 + \rho} \right), \quad (8.4)$$

$f$  – zanjirli traktor to‘g‘ri chiziqli tekis harakatidagi dumalash qarshilik koeffitsiyenti;  $\rho = \frac{R}{B}$  – burilish nisbiy radiusi.



8.1-rasm. Zanjirli traktor burilishida unga ta’sir etuvchi kuchlar:  
a - tirkamasiz; b – tirkama bilan

## 2. Ikki o‘qli g‘ildirakli tirkama bilan zanjirli traktoring burilish sxemasini qurish

Ikki o‘qli g‘ildirakli tirkama bilan zanjirli traktoring burilish sxemasini ko‘rib chiqamiz (8.2-rasmga qarang).

Urinma tortish kuchi yig‘indisi bilan burilishda traktor hosil qiladigan ilgakdagi yuklama bilan umumiy tangensial tortish kuchini quyidagi formula bo‘yicha aniqlash mumkin:

$$R_{kp} = f \cdot G + R_{kr} \cdot \cos \gamma, \quad (8.5)$$

Natijada traktoring burilishiga qarshilik momenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_{p\gamma} = \mu \frac{G \cdot L_{\gamma}}{4} + P_{kp} \cdot l_{kp} \cdot \sin \gamma, \quad (8.6)$$

bu yerda  $\mu$ - keltirilgan burilishga qarshilik koeffitsiyenti. Uning qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\mu = \frac{\mu_{\max}}{a + (1 - a) \cdot (\rho + 0,5)}, \quad (8.7)$$

Traktor buriladigan tuproq qancha zich bo'lsa, α burchak qiymatini katta olish kerak, chunki zich tuproqlarda burilish radiusining ortishi bo'sh tuproqlarga qaraganda burilishga qarshilik koeffitsiyentini kamaytirishga kam ta'sir ko'rsatadi.

$\sin \gamma$  - ning qiymatini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\sin \gamma = R \frac{l_{kp} + l_d}{R^2 + l_d^2}, \quad (8.8)$$

bu yerda  $l_d$  – tirkama shotisi uzunligi (dishlo'-tirkamani traktor osmasiga ulanadigan qism), m.

Agar tirkama bir oqli bo'lsa, u holda traktorga bevosita, oraliq bog'lanishsiz ulanadi, bu holda  $l_d = 0$  bo'ladi.

Dvigatel quvvatidan to'liq foydalangan holda traktor hosil qilgan burilish momentlari  $M_{pN}$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$M_{pN} = \frac{0,5B}{r_k} (2M_{kn} - P_{kn} \cdot r_k), \quad (8.9)$$


Bu yerda  $M_{kn}$  – traktor dvigateling nominal quvvatida va ko'rib chiqilayotgan uzatmada (tezlikda):

$$M_{kn} = \frac{N_{en}}{\omega_{dh}} \cdot i_{cnN} \cdot \eta_{cn}, \quad (8.10)$$

Bu yerda  $N_{en}$  – dvigatelning nominal quvvati, kVt;  
 $\omega_{dn}$  - dvigatel tirsakli valining burchak tezligi, rad/s;  
 $i_{cpN}$  – ko‘rib chiqayotgan uzatmadagi traktor transmissiyasi uzatish soni;

$\eta_{cp}$  – traktor kuch uzatmasining f.i.k.;

$r_k$  – traktor yetakchi g‘ildiragi (asosiy aylanasi) radiusi, m.



8.2-rasm. Zanjirli traktoring ikki o‘qli g‘ildirakli tirkama bilan burilish sxemasi

Traktor zanjirli yurish qismi zanjirining (gusenitsasi) yo‘l (tuproq) bilan ilashishi cheklanganligi e’tiborga olgan holda topilgan burilish momenti  $M_{p\phi}$  qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$M_{p\phi} = 0,5 \cdot V \cdot (\varphi \cdot G - R_{kp}), \quad (8.11)$$


bu yerda  $\varphi$  – yurish qismining tuproq bilan ilashish koeffitsyenti.  
 Hisob natijalarini 8.1-jadvalga kiritamiz.

### 3. Burilish tavsifini qurish

Burilish tavsifini qurish uchun abssissa o‘qi bo‘ylab, unga burilishning nisbiy radiusini  $\rho = \frac{R}{B} \cdot a$  va ordinata o‘qi bo‘ylab esam - dvigatel quvvati

va yetakchi g'ildirakning yo'1 (tuproq) bilan ilashish imkoniyatidan kelib chiqqan holda, aylanishga qarshilik momentlarining qiymatlari  $M_{rez}$  va burilish momentlarini  $M_{pN}$  va  $M_{pf}$  larni bir xil masshtabda qo'yamiz (8.3-rasm).

Ushbu birlikning qaysi minimal radiusida zanjirli traktorning barqaror burilishining amalga oshirish mumkinligi tavsif bo'yicha topish uchun  $M_{rez}$  va  $M_{pf}$  egri chiziqlarining kesishish nuqtasini abssissa o'qiga yo'naltirish kerak, natijada abssissa o'qida kesilgan segment  $\rho_{min}$  ning kerakli qiymatini belgilaydi (8.3-rasm).



8.3-rasm. Zanjirli traktorning burilish tavsifi

### Hisobot tayyorlash

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo'yicha o'rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlarni umumlashtirish va tahlil qilish.
2. Zanjirli traktorning burilish tavsifini qurish bo'yicha hisob-kitoblar natijalarini 8.1-jadvalga yozing.

8.1-jadval

Zanjirli traktorning burilish tavsifini qurish bo'yicha hisob-kitoblar natijalari

| Aniqlanadigan<br>qiymatlar | Burilish radiuslari, m |   |    |    |    |
|----------------------------|------------------------|---|----|----|----|
|                            | 2                      | 5 | 10 | 15 | 20 |
| siny                       |                        |   |    |    |    |
| $M_{rez}$ , kN·m           |                        |   |    |    |    |
| $R_{kp}$ , kN              |                        |   |    |    |    |

8.1-jadval davomi

|                    |   |  |  |  |  |
|--------------------|---|--|--|--|--|
| $M_{nN}$ , kN·m    | 1 |  |  |  |  |
|                    | 2 |  |  |  |  |
| $M_{p\phi}$ , kN·m |   |  |  |  |  |

3. Hisoblangan va qurilgan grafiklarga muvofiq burilish tavsifini tahlil qiling.

4. Traktordan turli tuproqlarda va qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan yer maydonlarida foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrlarga ega variantlar ustida bajaring (8.2-jadval).

6. Xulosa:

(bajarilgan ish bo'yicha talaba tomonidan to'ldiriladi)

|  |                     |   |
|--|---------------------|---|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |                     | «Traktor va avtomobillar<br>nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o'quv yili |
| Bajardi:   | Guruh:              | Zanjirli traktor burilish<br>tavsifini qurish va tahlil<br>qilish           |
| Qabul qildi:   | 8-amaliy mashg'ulot |   |

Ilova

8.2-jadval

Zanjirli traktor burilish tavsifini qurish va tahlil qilish uchun  
ma'lumotlar (variantlar)

| T<br>/r | Trak-tor<br>rusu-<br>mi | Traktor parametrlari |                   |                 |           |           |           |         |              | Tirkama<br>parametrlari |          |             |            |
|---------|-------------------------|----------------------|-------------------|-----------------|-----------|-----------|-----------|---------|--------------|-------------------------|----------|-------------|------------|
|         |                         | $G_t$<br>kN          | $N_{en}$ ,<br>kVt | $n_n$ ,<br>ayl/ | $i_{tr1}$ | $i_{tr2}$ | $i_{tr2}$ | V,<br>m | $L_g$ ,<br>m | $r_k$ , m               | $l_{pr}$ | $G_p$<br>kN | $B_1$<br>M |

|   |                 |      |       | min  |      |      |      |     |     |     |     |      |     |     |     |
|---|-----------------|------|-------|------|------|------|------|-----|-----|-----|-----|------|-----|-----|-----|
| 1 | VT-100          | 5,9  | 55,2  | 1700 | 44,4 | 39,7 | 35,7 | 1,4 | 2,6 | 0,3 | 0,8 | 10,0 | 1,8 | 3,0 | 1,4 |
| 2 | VT-150          | 6,3  | 110,0 | 2200 | 44,4 | 39,7 | 35,7 | 1,4 | 2,6 | 0,3 | 0,8 | 10,0 | 1,8 | 3,0 | 1,4 |
| 3 | T-4AM<br>Altrak | 8,5  | 95,7  | 1700 | 68,8 | 59,2 | 51,2 | 1,4 | 2,6 | 0,5 | 1,0 | 13,0 | 1,8 | 3,0 | 1,4 |
| 4 | T-150           | 7,9  | 121,4 | 2100 | 37,4 | 33,1 | 29,4 | 1,4 | 2,9 | 0,3 | 1,0 | 10,0 | 1,8 | 3,0 | 1,4 |
| 5 | T-130M          | 13,8 | 102,9 | 1070 | 53,5 | 44,9 | 38,8 | 1,4 | 2,4 | 0,4 | 1,2 | 17,0 | 1,8 | 6,0 | 1,4 |

## Nazorat savollari

- 1."Keltirilgan burilish qarshilik koeffitsiyenti" atamasi nimani anglatadi va uning qiymati nimaga bog'liq?
2. Burilish momenti qiymati nimaga bog'liq?
3. Traktorning ilashish holatiga ko'ra burilish momenti qanday aniqlanadi?
4. Kuzatilgan traktorning "burilish tavsifi" atamasi nimani bildiradi?
5. Burilish tavsifi bo'yicha qanday parametrlarni aniqlash mumkin?

## 9-AMALIY MASHG'ULOT TRAKTOR POTENTIAL TORTISH TAVSIFINI HISOBBLASH VA TAHLIL QILISH

**Ish maqsadi.** Kompyuterda traktor potentsial tavsifini qurish usuli bilan tanishish va uni tahlil qilish.

**Ish hajmi.** Amaliy mashg'ulot darsi 4 soat auditoriya dars soatida va 2 soat mustaqil ish uchun mo'ljallangan. Kompioter dasturining algoritmi mustaqil ishni bajarish paytida darsdan tashqari vaqtida ishlab chiqiladi.

Hisob-kitoblar kompyuterda amalga oshiriladi, hisoblash dasturi ish hisobotiga ilova qilinadi.

### Ish mazmuni

1. Traktor quvvat balansi tenglamasi.
2. Traktorning potensial tortish tavsifini qurish.
3. Traktorning potensial tortish tavsifini tahlil qilish.
4. Hisobotni tayyorlash.

### Ishni bajarish uslubiyoti

## 1. Traktor quvvat balansi tenglamasi

Traktor dvigatelini tomonidan ishlab chiqilgan quvvat miqdori, u tekislik bo‘ylab bir tekis harakatlanish holatida (uning quvvat olish vali uzilgan) qanday sarflanishini ko‘rsatadigan quvvat balansi tenglamasi quyidagi shaklga ega bo‘ladi:

$$N_e = N_{tr} + N_f + N_{sh} + N_{il}. \quad (9.1)$$

Ushbu tenglamaning o‘ng tomoni iste’mol qilingan quvvat sarfini ko‘rsatadi:

$N_{tr}$  – traktor transmissiyasidagi quvvat sarfi, kVt;

$N_{sh}$  – traktor yetakchi g‘ildiragining shataksirashi uchun sarflanadigan quvvat sarfi, kVt;

$N_f$  – traktor o‘zi yurishi uchun sarf qilinadigan quvvat sarfi, kVt;

$N_{il}$  - traktor ilgakidagi quvvat sarfi (foydali quvvat sarfi), kVt.

Traktorning tortish samaradorligini va unga ta’sir qiluvchi omillarni vizual ravishda namoyish qilish uchun biz tortish quvvatining qiymatiga qarab traktorning quvvat muvozanatini taqdim etamiz. Buning uchun (9.1) tenglamani quyidagi ko‘rinishda keltiramiz:

$$N_{il} = N_e - N_{tr} - N_f, \quad (9.2)$$

Kuch uzatmasida va yetakchi g‘ildiraklarda sarflanadigan quvvatni  $N_{tr}$  quyidagi formulalar yordamida aniqlaymiz:

$$N_{tr} = N_e (1 - \eta_{tr}), \text{ kVt}, \quad (9.3)$$

$$N_{tr} = N_e \eta_{tr} = N_e - N_{tr}, \text{ kVt}. \quad (9.4)$$

Bu yerda  $\eta_{tr}$  – kuch uzatmasi f.i.k.,  $\eta_{tr} = 0,9$ .

Etakchi g‘ildirak yoki yuritgichlarning shataksrashini 9.1.a-jadval (g‘ildirakli traktorlar uchun) yoki 9.1.b-jadval (zanjirli traktorlar uchun) yordamida aniqlaymiz. Bu jadvallarda  $\delta$  ilashish og‘irligiga bog‘liq holda ilashish koeffitsienti  $\varphi_{il}$  aniqlangan.

$P_{il}$  ning jadvalli qiymatlariga mos keladigan  $\varphi_{il}$  ning qiymatlari quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_{il} = \varphi_{il} \cdot G_{il}, \text{ kN}, \quad (9.5)$$

Bu erda  $G_{il}$  – traktor ilashish og‘irligi, kN.

$$G_{il} = \lambda_e \cdot G, \quad (9.6)$$

$G$ - traktor og‘irligi, kN;

$\lambda_e$  – traktor og‘irligining qancha qismi etakchi g‘ildiraklarga tushishini ko‘rsatuvchi koeffitsyent.

G‘ildirak formulasi  $3 \times 2$  va  $4 \times 2$  shaklidagi traktorlar uchun  $\lambda_e = 0,75$ ,  $4 \times 4$  shaklidagi va zanjirli traktorlar uchun  $\lambda_e = 1$ .

$P_{IL}$  - ning hisob qiymatlarini 9.1a-jadvalga kiritamiz.

9.1a-jadval

**G‘ildirakli traktor shataksirashining tortish kuchiga bog‘liqligi**

|                |   |      |      |          |          |     |
|----------------|---|------|------|----------|----------|-----|
| $\varphi_{il}$ | 0 | 0,2  | 0,4  | 0,6      | 0,6<br>5 | 0,7 |
| $P_{IL}$       |   |      |      |          |          |     |
| $\delta$       | 0 | 0,02 | 0,07 | 0,2<br>2 | 0,3<br>5 | 1,7 |

9.1b jadval

**Zanjirli traktor shataksirashining tortish kuchiga bog‘liqligi.**

|                |   |      |      |      |      |      |     |
|----------------|---|------|------|------|------|------|-----|
| $\varphi_{il}$ | 0 | 0,2  | 0,4  | 0,6  | 0,7  | 0,8  | 0,9 |
| $P_{il}$       |   |      |      |      |      |      |     |
| $\delta$       | 0 | 0,01 | 0,02 | 0,04 | 0,07 | 0,25 | 1,0 |

## 2.Traktor potensial tortish tavsifini qurish

A4 formatidagi millimetrali qog‘ozga Y o‘qi bo‘yicha masshtabda quvvat -N, kVt ni qo‘yamiz. X abssissa o‘qi bo‘ylab tortish kuchi -  $P_{il}$ , kN da qo‘yamiz. Quvvat o‘qi va tortish kuchining masshtablarini keyingi grafiklarni bajarish uchun qulay bo‘lgan tarzda tanlanishi kerak (9.1-rasm). Grafikdagi egri chiziqlar rangli chiziq bilan chizilishi kerak.

$P_{il}$  o‘qiga 9.1-jadvaldan olingan qiymatlarga mos nuqtalarni qo‘yamiz.

N o‘qida  $N_e$  dvigatelining maksimal effektiv quvvatiga va yetakchi g‘ildiraklardagi  $N_k$  quvvatiga mos keluvchi nuqtalarni qo‘yib chiqamiz. Bu nuqtalar orqali  $R_{il}$  o‘qiga parallel chiziqlar chizamiz. Tortish kuchi

o‘zgarganda dvigateл quvvatining doimiyligi potensial tortish tavsifi aniqlashdan kelib chiqadi.

Ushbu tavsifni qurishda traktorining tezligi  $V_{tr}$  ni avtomatik ravishda o‘rnatadigan doimiy o‘zgaruvchan uzatmaga ega ekanligini hisobga olish kerak, shunda uning dvigateли tortish kuchining qiymati qandaylidan qat’i nazar maksimal quvvat bilan yuklanadi.

Quvvat o‘qiga parallel qo‘sishimcha o‘q o‘tkazamiz va unga traktor yetakchi g‘ildiragi shataksirashi  $\delta$  ni qo‘yamiz. Bu o‘q bo‘ylab masshtab shunday tanlanishi kerakki, 100% sirpanish 100 mm ga teng bo‘lsin. Shundan keyin shataksirash grafigi  $\delta = f(R_{kr})$  ni 9.1-jadvalga muvofiq chizamiz.

9.1-jadvaldan  $P_{il}$  qiymatini 9.2-jadvalga ko‘chiramiz. Shundan keyin traktor yetakchi g‘ildiragi shataksirashiga sarflanadigan quvvat sarfini -  $N_\delta$  quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$N_\delta = N_k \cdot \delta, \text{ kVt.} \quad (9.7)$$

Hisoblash natijalarini 9. 2-jadvalga kiritamiz.

$N_k$  va  $N_\delta$  hisoblangan qiymatlari asosida tortish quvvati va traktor o‘zini yuritish uchun sarflangan quvvat sarfini topamiz ( $N_k + N_\delta$ ):

$$N_f + N_{il} = N_k + N_\delta, \text{ kVt.} \quad (9.8)$$

Hisoblash natijalarini 9.2-jadvalga kiritamiz va ( $N_f + N_{kr}$ ) egri chiziqni chizamiz va 9.1-rasmga kiritamiz.

Urinma tortish kuchini aniqlaymiz va uni 9.2-rasmga (grafikka) kiritamiz.

$$R_k = R_{kr} + R_f, \text{ kN.} \quad (9.9)$$

Bu yerda  $P_f$  – dumalash qarshilik kuchi, uning qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$P_f = f \cdot G, \text{ kN.}$$

$f$  – dumalash qarshilik koeffitsyenti, uning qiymatini  $f=0,08$  deb qabul qilamiz.

Yetakchi g‘ildirakning burchak tezligini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$\omega_{\kappa} = \frac{\omega_{\delta}}{i_{mp}},$$

Bu yerda  $\omega_{\delta}$  - dvigatel tirsakli vali burchak tezligi, hisob ishlarida quyidagicha qabul qilinadi  $\omega_{\delta} = \omega_{\delta_H}$ .

Traktor nazariy tezligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_n = \omega_k \cdot r_k.$$

Traktor haqiqiy tezligini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$V_x = V_n (1 - \delta). \quad (9.10)$$

bu yerda  $\delta$  - yetakchi g'ildirak shataksirash koeffytsienti. Bu ishda g'ildirakli traktorlar uchun  $\delta=0,15$ , zanjirli traktor uchun  $\delta=0,05$  deb qabul qilamiz.

Hisob natijalarini 9.2-jadvalga kiritamiz va  $V_d = f(P_{il})$  egri chiziqni 9.1-rasmga kiritamiz.

Traktor tortish quvvatini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$N_{il} = R_{il} \cdot V_d, \text{ kVt.} \quad (9.11)$$

Hisob natijalarini 9.2-jadvalga kiritamiz va  $N_{il} = f(P_{il})$  grafikni 9.1-rasmga kiritamiz.

Traktorning tortish f.i.k. ni hisoblaymiz -  $\eta_t$ :

$$\eta_t = N_{il} / N_e, \quad (9.12)$$

Hisob natijalarini 9.2-jadvalga va  $\eta_t = f(P_{il})$  grafikini 9.1-rasmga kiritamiz.

Tortish f.i.k.  $\eta_t$  - ni shunday tanlab olish kerakki,  $\eta_t=1$  qiymati 100 mm mos kelsin.

Traktor shataksirash f.i.k.  $\eta_{\delta}$  ni quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\eta_{\delta} = 1 - \delta, \quad (9.13)$$

Hisob natijalarini 9.2-jadvalga kiritamiz.

Traktor dumalash f.i.k.  $\eta_f$  ni quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\eta_f = P_{il}/(P_{il} + P_f), \quad (9.14)$$

Hisob natijalarini 9.2-jadvalga kiritamiz.

Traktor tortish f.i.k. ni  $\eta_t$  formula yordamida aniqlaymiz:

$$\eta_t = \eta_{tr}\eta_\delta\eta_f, \quad (9.15)$$

Hisob natijalarini 9.2-jadvalga kiritamiz.

### **3.Traktor potensial tortish tavsifini tahlil qilish**

(9.12) va (9.15) formulalar bo'yicha hisoblangan tortish f.i.k.  $\eta_t$  - ning qiymatlarini taqqoslang va tortish samaradorligi dvigatel quvvatiga -  $N_d$  bog'liqligi haqida xulosa chiqaring.

-  $\lambda$  koeffitsiyenti traktorning og'irligini qancha qismi yetakchi g'ildirakka (zanjirli yorish qismiga) tushishini aniqlang.

Nominal tortish kuchi -  $R_{kr}$  ni maksimal tortish f.i.k. -  $\eta_t$  ni quyidagilarga bog'liq ravishda aniqlang:

- dvigatel quvvati -  $N_d$ ;
- traktor og'irligi -  $G$ ;
- $\lambda$  koeffisiyent bilan bog'lanishini, traktor og'irligini qancha qismi yetakchi g'ildiraklariga tushishini ko'rsatadi;
- traktorning dumalash qarshiligi koeffitsiyenti -  $f$ .

Potensial tortish tavsifini tahlil qilish uchun o'rganilayotgan omillarning turli qiymatlari uchun ushbu tavsifning qiymatlarini kompyuterda hisoblash kerak. O'rganilayotgan omillarning o'zgarishi natijasida potensial tortish tavsiflari qiymatlarining o'zgarishiga ko'ra, qo'yilgan savollarga javob berish mumkin.

### **Hisobot tayyorlash**

1. Bajarilgan ishning har bir bandi bo'yicha o'rnatilgan tartibda hisobot tayyorlash, bajarilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

2. Traktorning potensial tortish tavsifini qurish bo'yicha hisob-kitoblar natijalarini 9.1-jadvalga yozing.

9.1-jadval

## Traktorning potersial tortish tavsifini qurish bo‘yicha hisob-kitoblar natijalari

| $P_{kr}$ , kN | $\delta$ | $N_{\delta}$ , kVt<br>kVt | $N_f + N_{kp} =$<br>$= N_K - N_{\delta}$ , kVt | $R_k =$<br>$= P_{kp} + P_f$ , kN | $V_D$ , m/s | $N_{kp}$ , kVt | $\eta_t$ | $\eta_{\delta}$ | $\eta_f$ |
|---------------|----------|---------------------------|--|----------------------------------|-------------|----------------|----------|-----------------|----------|
|               |          |                           |  |                                  |             |                |          |                 |          |
|               |          |                           |  |                                  |             |                |          |                 |          |
|               |          |                           |  |                                  |             |                |          |                 |          |
|               |          |                           |  |                                  |             |                |          |                 |          |

3. Hisoblangan va qurilgan grafiklarga muvofiq burilish tavsifini tahlil qiling.

4. Traktordan turli tuproqlarda va qishloq xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan yer maydonlarda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish.

5. Ushbu amaliy ishni quyidagi parametrlerga ega variantlar ustida bajaring (9.2-jadval).

6.Xulosa.


— (bajarilgan ish bo‘yicha talaba tomonidan to‘ldiriladi)

|  |                     |  |
|--|---------------------|--|
| ToshDTU<br>“Mashinasozlik” fakulteti<br>“Yer usti transport tizimlari” kafedrasи |                     | «Traktor va avtomobillar nazariyasi” fani<br>202.... – 202... o‘quv yili |
| Bajardi:   | Guruh:              | Zanjirli traktor burilish tavsifini qurish va tahlil qilish              |
| Qabul qildi:   | 9-amaliy mashg‘ulot |  |

### Nazorat savollari

1. Traktor potensial tortish xarakteristikasi nimani bildiradi?
2. Yetakchi g‘ildirak sirpanganda va traktor o‘z-o‘zidan harakatlanganda quvvat yo‘qotilishi qanday aniqlanadi?
3. Traktorning haqiqiy tezligi, tortish kuchi va tortish samaradorligi qaysi formulalar yordamida aniqlanadi?

9.1-rasm. Traktor potensial tortish tavisifini qurish



## **ADABIYOTLAR**

1. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar. Nazariya hamda hisobi. -Т., 2005.-211b.
2. Komilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari.-Т., 2019, 170 б.
- 3.Кутьков Г.М. Тракторы и автомобили. Теория и технологические свойства. – М.: Колос, 2004. – 522 с.
- 4.Курасов В.С., Трубилин Е.И., Тлишев А.И. Тракторы и автомобили, применяемые в сельском хозяйстве: Учебное пособие.- Краснодар: Кубанский ГАУ, 2011. – 132 с.
- 5.Тракторы: Теория. Гуськов В.В. И др. / Под.общ. ред. В.В.Гуськова. -М.: Машиностроение, 1988. -376 с.
6. Основы теории и расчета трактора и автомобиля. /Скотников В.А., Мащенский А.А., Солонский А.С. Под ред. Скотникова В.А. - М.: Агропромиздат, 1986. -383 с.
7. Махкамов К.Х., Вагизов М.З., Алибаев Б.А. Методические указания к лабораторным и практическим занятиям по курсу “Теория трактора и автомобиля”. -Т.: ТашГТУ, 2004. -64 с.
8. Савочкин В.А. Тяговый расчет трактора. /Методические указания для выполнения курсовой работы по дисциплине. Теория трактора. – М.: МГТУ МАМИ, 2001. – 48 с.
9. Вахламов В.К., Шатров М.Г., Юрчевский А.А. Теория и конструкция автомобиля и двигателя. –М.: Академия, 2003.– 816 с.
10. David A. Crolla. Automotive Engineering Powertrain, Chassis System and Vehicle Body, 2009.
11. Вагизов М.З., Алибаев Б.А. Тяговый расчет трактора. Методические указания. -Т.: ТашГТУ, 2014.-31 с.
12. Гребнев В.П. Тракторы и автомобили. Теория и эксплуатационные свойства. – М.: КНОРУС. 2013. – 264 с.
13. Хажиев М.Х., Примкулов Б.Ш., Норматов М.К. Теория тракторов и автомобилей: Методические указания. -Т.: ТашГТУ, 2021. 76 с.
14. Шафрин А.Н., Хайруллаев Х.Х. Методические рекомендации для выполнения практических работ по расчетному курсу Теория, основы расчета и анализ работы тракторов и автомобилей.-Т.: ТИИИМСХ, 1982.-66 с.

## **Internet**

15.[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – Правительственный портал Республики Узбекистан.

16.[www.lex.uz](http://www.lex.uz) – Национальная база данных по законодательству Республики Узбекистан.

17.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz). – Портал образования.

18.[www.twirpx.com](http://www.twirpx.com). – Портал учебы.

## MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| Kirish.....   | 3   |
| 1 Traktor (avtomobil) muftasini hisoblash.....  | 5   |
| 2 Traktor va avtobil transmissiyasining uzatishlar soni<br>nisbatlarining tuzilishini (strukturasini) aniqlash va<br>tahlil qilish..... | 14  |
| 3 G‘ildirakli traktor (avtomobil) ning bo‘ylama turg‘unligini<br>aniqlash va tahlil qilish.....   | 24  |
| 4 Zanjirli traktorning bo‘ylama turg‘unligini aniqlash<br>va tahlil qilish.....   | 46  |
| 5 To‘rt g‘ildirakli (zanjirli) traktor (avtomobil) ning<br>ko‘ndalang turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish.....                      | 57  |
| 6 Uch g‘ildirakli traktor chopiq traktorining ko‘ndalang<br>turg‘unligini aniqlash va tahlil qilish.....                                | 72  |
| 7 Zanjirli yuritgich bosim diagrammasini qurish va<br>tahlil qilish.....  | 82  |
| 8 Zanjirli traktorining burilish tavsifini qurish va<br>tahlil qilish.....  | 91  |
| 9 Traktorning potensial tortish tavsifini qurish va<br>tahlil qilish.....   | 99  |
| Adabiyotlar.....  | 109 |

**XAJIYEV M.X., PRIMKULOV B.SH.**

**“TRAKTOR VA AVTOMOBIL NAZARIYASI” FANIDAN  
AMALIY MASHGULOTLARNI O’TKAZISH UCHUN  
USLUBIY KO‘RSATMA**

Muharrir:

Miryusupova Z.M.